2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 229 (1828), 2026-yil 5-noyabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

BUYUK TARIXDAN YANGI TARAQQIYOT VA MUHTASHAM LOYIHALAR DAVRIGA SHIDDAT BILAN YUZLASHAYOTGAN BUXORO

Prezidentimiz Buxoroga tashrifi doirasida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi





O‘zbekiston yetakchisi bugungi Buxoroni buyuk tarixdan yangi taraqqiyot va muhtasham loyihalar davriga shiddat bilan yuzlashayotganini e’tirof etdi. Ushbu fikrni buxoroliklar teran tahlil etib, uning mohiyatidagi asl hayotiy haqiqatlarni faxr bilan e’tirof etmoqda. Chunki bu so‘zlar zamirida yangi O‘zbekistonning qisqa muddatda yaratilgan katta tarixi o‘z ifodasini topgan. Kechagina Buxoro deganda, Qizilqum kengliklaridagi olis bir manzil tushunilardi. Bu olislik nafaqat masofa, balki barcha sohadagi yig‘ilib qolgan dolzarb masalalar bilan ham bog‘liq edi.

Masalan, hududning drayver sohasi bo‘lgan turizm uchun yetarlicha sharoit yo‘q edi. Ichimlik, umuman, suv bilan bog‘liq masalalar yil sayin og‘irlashib borayotgandi. Yo‘l, logistika infratuzilmasi quyiga qarab ketayotgandi. Bunday vaziyatda qadim kentlar shonli tarixidan uzoqlashadi, kelajakka ishonch ham so‘roq ostida qola boshlaydi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Bugun Buxoro iqtisodiy quvvati oshib, imkoniyati kengayib borayotgan hududga aylandi. Muhimi, bu yangilanishlar bir joyda to‘xtab qolgani yo‘q. Erishilgan yutuqlar kechagi kun uchun edi. Bugun va erta uchun esa yanada baland marralar kerak degan qat’iy qaror bilan olg‘a intilyapmiz. Tashrif doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari, jumladan, bunday dedi:

— Buxoro iqtisodiyotiga, odamlarning kundalik hayotiga ijobiy o‘zgarishlar olib kiradigan 30 milliard dollarlik yangi tashabbuslar bilan kelganmiz.

Ha, kuzning fayzli va barakali kunlarida bo‘lib o‘tgan mazkur tashrif tom ma’noda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yangi sahifa ochib berdi. Buni O‘zbekiston yetakchisi ilgari surgan hayotbaxsh tashabbuslar tasdiqlaydi. Birinchi navbatda, viloyat ahli uchun muhim ahamiyatga ega suv masalasini aytib o‘tish kerak.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan 385 million dollarlik yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Uning doirasida suv va kanalizatsiya ta’minoti yaxshilanadi. Loyihaning ikkinchi bosqichida yana 248 million dollarlik investitsiya jalb qilish nazarda tutilgan. Natijada viloyatning barcha tuman-shaharlaridagi 1,7 million kishining suv ta’minoti yaxshilanadi. Umuman, markazlashgan suv ta’minoti 95 foizga yetadi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TOJIKISTON PARLAMENTI MAJLISI MILLIY RAISINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Tojikiston Respublikasi Majlisi oliy Majlisi milliy Raisi Rustami Emomalini qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Majlisi milliy Raisi davlatimiz rahbariga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston — Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, jumladan, ikki mamlakat parlamentlari hamkorligi doirasida yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha yo‘nalishlardagi hamkorlik jadal sur’atlarda rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va yuk tashish hajmlari ortib bormoqda. Sanoat, qurilish, energetika, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Qo‘shma Investitsiya kompaniyasi samarali faoliyat yuritmoqda.

Poytaxtlar va hududlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni rag‘batlantirish, madaniy-gumanitar, ta’lim va turizm sohalaridagi almashinuvlarni kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlar va qo‘shma tashabbuslarni ilgari surishda qonunchilik organlarining rolini oshirish, bu borada parlamentlararo komissiyalar, do‘stlik guruhlari hamda sohaviy qo‘mitalar faoliyatini faollashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston yetakchisi Rustami Emomalini ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashdagi katta xizmatlari, parlamentlararo muloqotni kengaytirish borasidagi samarali faoliyati uchun davlatimizning yuksak mukofoti — “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirladi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG‘ISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II taklifiga binoan 5-6-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari sun’iy intellekt sohasida xavfsizlikni ta’minlash, uning terroristik va ekstremistik maqsadlarda ishlatilishiga qarshi kurashish, yangi texnologik xatar hamda tahdidlarga javob qaytarishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining Aqaba jarayoni doirasidagi uchrashuvida ishtirok etadi.

Aqaba jarayoni 2015-yilda Podshoh Abdulla II tomonidan ilgari surilgan xalqaro tashabbus bo‘lib, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda xavfsizlikni ta’minlash sohasida tajriba almashish va qo‘shma sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan.

O‘zA

O‘ZBEKISTON DEHQON VA FERMERLARI HAMDA BARCHA QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli dehqon va fermerlar, klaster xodimlari, dala mehnatkashlari!

Siz, azizlarni Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etib, rekord natijaga erishganingiz bilan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, sizlarning fidokorona mehnatingiz, jasorat va matonatingiz bilan qo‘lga kiritilgan bu tarixiy g‘alaba butun xalqimizning g‘alabasi. Bu — paxtachilik sohasidagi Yangi O‘zbekiston mo‘jizasidir.

Bu yutuqning ijodkori sizlar — azamat dehqon va fermerlarimiz, mohir agronom, suvchi, mexanizator, olim va mutaxassislarimiz, klaster xodimlari desak, adolatli fikrni aytgan bo‘lamiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizga o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirib, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman. Sizlar bilan butun xalqimiz faxrlanadi, g‘ururlanadi.

Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq qiyinchiliklar yanada kuchaygan joriy yilda paxta xomashyosini yog‘in-sochinli kunlarga qoldirmasdan, sohaning ichki imkoniyatlari hisobidan yuksak sifat bilan yig‘ib-terib olganingiz tahsinga munosibdir.

Bu haqda gapirganda, beixtiyor paxtachilik el-yurtimizga manfaat emas, balki azob-uqubat va oxir-oqibatda “o‘zbek ishi” degan quruq tuhmat olib kelgan og‘ir kunlarni eslaymiz. “Kim edig-u kim bo‘ldik?” degan fikr albatta xayolimizdan o‘tadi.

Chindan ham sobiq sovet davrida, xususan, 1980-yillarda respublikamizda paxta yetishtirish uchun qariyb 2 million gektar yer ajratilgan, o‘rtacha hosildorlik esa 30 sentnerdan oshmas, natijada dehqonning kosasi oqarmas edi.

Davomi 2-betda

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-noyabr kuni huquqbuzarliklar profilaktikasini zamon talablari asosida takomillashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va mahallalarda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, hududlarda xavfsizlik infratuzilmasi kengaytirilib, 263 mingta tanib oluvchi kamera, 70 mingta zamonaviy domofon va 22 mingta tashvish tugmasi o‘rnatildi. Ijtimoiy profilaktika choralari orqali 2,1 million nafar shaxsning muammolari manzilli hal etildi.

Natijada kriminogen vaziyati eng og‘ir bo‘lgan 809 ta mahallaning 701 tasi ushbu toifadan chiqarildi. Qariyb 4,4 mingta mahalla “yashil” toifada qolmoqda.

Shu bilan birga, jamiyatdagi o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, kiberjinoyatchilik va boshqa zamonaviy tahdidlar huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Xususan, 2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunga o‘tgan davrda 20 dan ortiq o‘zgartirish kiritilgan bo‘lsa-da, uning ayrim normalari bugungi talablarga javob bermay qolgan.

Shu munosabat bilan taqdimotda mazkur qonunni yangi tahrirda qabul qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari yangi qonun huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin chora ko‘rishga asoslangan yondashuvdan xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan proaktiv profilaktika modeliga o‘tishni ta’minlashi zarurligini ta’kidladi.

Davomi 2-betda

DRON TEXNOLOGIYALARI IQTISODIYOT TARMOQLARIGA KENG JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlarida uchuvchisiz aviatsiya tizimlaridan foydalanishni kengaytirish va sohani tartibga solishga doir taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda dunyoda uchuvchisiz aviatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib, qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, shaharsozlik va xizmat ko‘rsatish kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Dronlardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish, resurslarni tejash va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omilga aylanmoqda.

Xususan, qishloq xo‘jaligida ekin maydonlarini kuzatish, ularga ishlov berish va hosildorlikni monitoring qilish, sanoatda ishlab chiqarish jarayonlari va infratuzilma obyektlarining holatini nazorat qilish, shaharlarda transport oqimini kuzatish va ko‘chalarda harakatni tashkil etishda ushbu texnologiyalardan foydalanish katta imkoniyatlar ochadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, global dron bozori yiliga 10-15 foiz sur’at bilan o‘sib bormoqda. Ushbu texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish mamlakatimizda ham iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, yuqori malakali mutaxassislarga talabni oshirish va yangi texnologik yo‘nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu munosabat bilan taqdimotda O‘zbekistonda uchuvchisiz aviatsiya tizimlaridan fuqarolik maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sohada tadbirkorlik va investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Davomi 2-betda

Buxoroda kelasi yili 30 ga yaqin xalqaro tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda. Davlatimiz rahbari Buxoro bunga qanchalik tayyor, degan savolni o‘rtaga qo‘yar ekan, viloyatda besh yulduzli mehmonxona yo‘qligi, yirik savdo va ko‘ngilochar maskanlar yetarli emasligi, mavjud xizmatlarning asosiy qismi Buxoro shahrida jamlanganiga e’tibor qaratdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 5-noyabr, 229-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON DEHQON VA FERMERLARI HAMDA BARCHA QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARIGA

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillikning dastlabki davrida, xususan, 2000-yilga kelib 1,4 million gektar yerga chigit ekilib, O‘zbekiston bo‘yicha jami 3 million tonna paxta terib olingan.

Biz keyingi yillarda tarmoqni o‘ta og‘ir ahvoldan olib chiqish uchun, avvalo, chigit ekiladigan maydonlarni 38 foizga qisqartirib, paxta monopoliyasiga barham berdik. O‘qituvchi, talaba va o‘quvchilarni, byudjet tashkilotlari xodimlarini dala ishlariga jalb etishga chek qo‘ydik. Sohani ilm-fan yutuqlari, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratdik. Boshda bunga ishonmasdan, shubha bilan qaraganlar ham bo‘ldi. Ammo tanlagan yo‘limiz naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi, bu yilgi natijalarimiz yaqqol tasdiqlamoqda.

O‘tgan davrda paxtachilikda hosildorlik 2,7 karra oshib, 21 sentnerdan 56 sentnerga yetgani bu borada qanday katta yuksalish yo‘lini bosib o‘tganimizni ko‘rsatib turibdi.

Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etganimiz hisobidan suv sarfi 1990-yillarga nisbatan 2 karra kamayib, har bir kub metr suv evaziga olinayotgan hosil miqdori oshib borayotgani biz uchun g‘oyat muhimdir.

Bu yil ekish sxemalari o‘zgartirilib, ko‘chatlar soni 2-3 karra oshirilgani, ko‘sak qurti va gerbitsidga chidamli yangi biotexnologik navlar joylashtirilgani ham o‘zini oqladi. Bu o‘zgarishlarning amaliy samarasini qariyb 400 ming gektar yerda o‘rtacha hosildorlik 70 sentnerga yetgani, salkam 70 ming gektarda 100-110 sentnergacha hosil olingani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Hech shubhasiz, bunday yutuqlar qatorida 1 mingga yaqin fermer xo‘jaliklari va klasterlar o‘rtacha 100 sentnerlik va undan ham yuqori marralarni zabt etganlari alohida o‘rin tutadi. Bu haqda so‘z yuritganda, 4 mingdan ziyod fermerlarimiz hosildorlikni o‘rtacha 60-70 sentnerdan, 2,5 ming nafari esa 80 sentnerdan oshirgani, ayniqsa, Paxtakor tumanidagi Anorboy Eshmatov va Jarqo‘rg‘on tumanidagi Ulug‘bek So‘piyev har gektar yerdan 110 sentnerdan hosil olishganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Mingbuloq tumanidagi “Burgut polvon”, Navbahor tumanidagi “Yahyo bobo”, Boyovut tumanidagi “Boyovutlik Humoyun”, Bekobod tumanidagi “Otabek Zilola”, Oqqo‘rg‘on tumanidagi “Murod”, Gurlan tumanidagi “Ixlosbek”, Hazorasp tumanidagi “Yakub Annazar” hamda Tuproqqal’a tumanidagi “Gulcharos Munisa” fermer xo‘jaliklari ham hosildorlikni 100 sentnerdan oshirdilar.

Jizzax, Xorazm, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida hosildorlik 60 sentnerdan ko‘proqni tashkil etgani ham paxtachiligimiz tarixiga zarhal harflar bilan yoziladi.

O‘ta og‘ir ekologik hududda hosildorlikni o‘tgan yillarga nisbatan 10-15 sentnerga oshirib, 400 ming tonnadan ortiq xirmon bunyod etgan Qoraqalpog‘iston paxtakorlarini chin qalbdan qutlashdan mamnunman.

Hosildorlikni 70 sentnerdan oshirgan Mirzaobod va Xovos tumanlari, 55-70 sentnerga yetkazgan Mirzacho‘l, Paxtakor, Qiziltepa, Uchqo‘rg‘on va Peshku, Jalaquduq, Vobkent, Jondor, Romitan, Olot, Arnasoy, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Bog‘ot, Xonqa, Hazorasp, Jarqo‘rg‘on va Yangibozor, Amudaryo, Baliqchi, Marhamat, Paxtaobod, Do‘stlik, Ko‘kdala, Navbahor, Mingbuloq, Chortoq, Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Boyovut, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka, Bekobod, Piskent, Yuqori Chirchiq, Bag‘dod, Quva, Gurlan va Qo‘shko‘pir tumanlari mehnatkashlari boshqalarga namuna bo‘ldilar.

Eng katta — 110 ming tonnalik xirmon barpo etgan Koson, shuningdek, Mirishkor (105 ming), Kasbi (95 ming), Nishon (90 ming), Mirzacho‘l (85 ming), Mirzaobod (81 ming), Do‘stlik (77 ming), Amudaryo (76 ming), Oqoltin (72 ming), Pastdarg‘om (71 ming), Paxtakor (68 ming), Mingbuloq va Quyi Chirchiq (62 ming tonnadan), Boyovut va Jondor (60 ming tonnadan), Bekobod (58 ming), Gurlan va Romitan (57 ming tonnadan), Vobkent va Kattaqo‘rg‘on (56 ming tonnadan), Xonqa (52 ming tonna) kabi tumanlar ham ilg‘orlar safidan munosib joy egalladi.

Biz oqila, tashkilotchi ayollarimiz rahbarlik qilayotgan Olot va Bo‘ston tumanlarida hosildorlik o‘rtacha 55-60 sentnerga yetkazilganini alohida qadrlaymiz.

Bu yil yetishtirilgan hosilning 85 foizi 3 mingdan ortiq paxta terish mashinalari yordamida 30-35 kunda terib olingani, mexanizatsiyalashtirish darajasi Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 100 foizga yetkazilgani, boshqa hududlarimiz ham shu marraga yaqinlashib kelayotgani odamlarni og‘ir mehnatdan xalos etish yo‘lidagi islohotlarimizning muhim natijasidir.

Paxtachilik kengashi tashkil etilgani, olimlarimiz tomonidan noan’anaviy texnologiyalar qo‘llanilgani hamda raqamlashtirish, dronlardan foydalanish orqali sarf-xarajat ikki barobar kamaytirilgani ham bu yilgi yutuqlarni ta’minlashda asosiy omil bo‘ldi. Shular qatorida davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilgani, to‘lov intizomi yaxshilanib, subsidiyalash takomillashtirilgani, sug‘urta tizimi yaratilgani, bir so‘z bilan aytganda, tarmoqda tizim butunlay yangilangani yuqori natijalarga erishishda salmoqli rol o‘ynadi.

Shu o‘rinda yana bir muhim raqamga e’tiboringizni qaratmoqchiman: bu yil fermerlarimiz paxtadan 13-14 trillion so‘m sof foyda olishi kutilmoqda. Shu asosda ular yil bo‘yi qilgan mashaqqatli mehnati evaziga munosib daromad topishi, odamlarimizning hayoti yanada obod va farovon bo‘lishi tabiiydir.

Albatta, ana shunday ulkan natijalarni ta’minlashda qishloq xo‘jaligi rivojiga qaratayotgan doimiy e’tiborimiz, dehqon va fermerlar, klasterlar, umuman, dalada ishlayotgan har bir insonning o‘z mehnatidan manfaatdorligi, ertangi kunga ishonchi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Muhtaram yurtdoshlar!

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi strategik yo‘limizni amalga oshirishda biz, avvalo, sizlarga, agrotarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan 3,5 million nafardan ziyod mirishkorlarga tayanamiz. Sizlar uchun yana qanday qo‘shimcha sharoit va imkoniyatlar yaratish kerak bo‘lsa, barchasini ta’minlab berishga tayyormiz.

Qishloq xo‘jaligining yuksak va barqaror taraqqiyoti — butun mamlakatimizning yuksak va barqaror taraqqiyotida ustuvor o‘rin tutadigan omildir.

Yaqinda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Xalqaro paxta kuniga bag‘ishlangan anjumanda 30 dan ziyod mamlakatdan kelgan olim va mutaxassislar biz erishayotgan yutuqlarni e’tirof etib, Butunjahon paxtachilik markazini aynan O‘zbekistonda tashkil etish bo‘yicha taklif bildirishgani albatta bejiz emas.

Kelgusi yilda serhosil urug‘lik navlaridan foydalanish, agrodron orqali ishlov berish, suv va energiya tejovchi texnologiyalar, sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha sizlarga yanada ko‘proq sharoitlar yaratib, paxtadan o‘rtacha hosildorlikni 65-70 sentnerga yetkazishni maqsad qilib qo‘ydik. Ana shunday dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda fermerlarimiz va klaster xodimlari olimlar, muhandis va mutaxassislar bilan birgalikda yanada katta kuch-g‘ayrat bilan mehnat qiladilar, deb ishonaman.

“O‘z” degan ezgu g‘oyamiz zamirida mujassam bo‘lgan o‘z ishimiz, o‘z so‘zimiz, o‘z g‘alabamizga ishonch ruhi bilan olg‘a qarab borishdan hech qachon to‘xtamaymiz!

O‘zbekiston paxtachiligida yangi tarix yaratayotgan siz, azizlarni bugungi zafar bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga tinchlik, baxt va farovonlik tilayman.

Himmatingizga, qudratingizga balli, zahmatkash va fidoyi yurtdoshlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan 14 ta davlat idorasi shug‘ullanayotgan bo‘lsa-da, ularning vazifalari ayrim hollarda takrorlanmoqda, vakolatlari aniq chegaralanmagan. Taqdimotda profilaktika subyektlari doirasini yana 7 taga kengaytirish taklif qilindi.

Prezidentimiz bu taklifning maqsadga muvofiqligini aniq asoslash, eng avvalo, har bir idoraning vazifasi, vakolati va javobgarligini belgilash, ular o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash muhimligini qayd etdi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi qonun loyihasida Huquqbuzarliklar profilaktikasi komissiyasining vakolatlarini qonun darajasida belgilash nazarda tutilmoqda. Bunda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, profilaktika choralarining samaradorligini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Qonun loyihasida ilk bor profilaktikaning yangi yo‘nalishlarini belgilash, xususan, giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar, kiberjinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashishda preventiv choralarni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, ijtimoiy va viktimologik profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini profilaktika tadbirlari bilan keng qamrab olish, jinoyatdan jabrlangan fuqarolarning xavfsizligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlash bo‘yicha yangi normalar ilgari surildi.

Bunda jinoyatdan jabrlanganlar va guvohlarning hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkiga tahdid yuzaga kelganda ularning xavfsizligi va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ko‘maklashgan fuqarolarni rag‘batlantirish ko‘zda tutilmoqda. Shu bilan birga, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish yuzasidan majburiy profilaktik ko‘rsatma berishning huquqiy asoslarini belgilash taklif qilinmoqda.

Taqdimotda kriminogen vaziyatni baholash va huquqbuzarliklarning oldini olish choralari samaradorligini nazorat qilish tizimini takomillashtirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, hozirgi baholash usullari asosan statistik ma’lumotlarga tayanadi. Jinoyatchilikka ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarlicha tahlil qilinmaydi, mavjud axborot tizimlari o‘zaro to‘liq integratsiyalashmagan.

Shu bois, kriminogen vaziyatni baholashning yangi modelini joriy etish taklif qilindi. Unga ko‘ra, ilk bor aholining xavfsizlik hissi va yashirin jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini ham inobatga oladigan “kriminogen barqarorlik indeksi”ni shakllantirish ko‘zda tutilmoqda.

Buning uchun davlat idoralarining axborot resurslarini birlashtiradigan yagona kriminogen ma’lumotlar platformasini ishga tushirish, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida jinoyatchilik xavflarini tahlil qilish va prognozlash, kriminogen xaritalarni shakllantirish rejalashtirilmoqda.

Mazkur mexanizmlar orqali hudud va mahallalardagi kriminogen vaziyat muntazam baholanib, xavf darajasiga qarab manzilli profilaktika choralari belgilanadi. Mas’ul idoralar faoliyati natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida baholanadi, muammolarni hal etish yuzasidan ta’sirchan nazorat o‘rnatiladi.

Davlatimiz rahbari huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi bo‘lib qolmasdan, barcha mas’ul idoralar, mahalla va jamoatchilikning hamjihatlikdagi faoliyatiga asoslanishi kerakligini ta’kidladi.

Har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish, huquqbuzarliklarni keltirib chiqarayotgan omillarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, fuqarolar osoyishtaligini ishonchli ta’minlash ustuvor vazifa ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Taqdimot yakunida mutasaddilarga qonun loyihasini bildirilgan fikr-mulohazalar asosida takomillashtirish, profilaktika subyektlarining vazifa va vakolatlarini aniq belgilash, raqamli tahlil va monitoring mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Kriminogen vaziyatni baholashning yangi modelini joriy etishni nazarda tutuvchi farmon imzolandi.

O‘zA

BUYUK TARIXDAN YANGI TARAQQIYOT VA MUHTASHAM LOYIHALAR DAVRIGA SHIDDAT BILAN YUZLASHAYOTGAN BUXORO

Boshlanishi 1-betda

Bu yil viloyatdan o‘tgan A-380 yo‘lining rekonstruksiyasi yakunlanadi. Kelasi yili M-37 yo‘lining Buxorodan o‘tadigan 69 kilometrli qismida ham rekonstruksiya ishlari boshlanadi. Loyiha doirasida Buxoro shahri atrofida 4,5 kilometrli aylanma yo‘l quriladi. Ayni jihat iqtisodiy quvvati oshib borayotgan viloyatning logistika imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bunga qo‘shimcha ravishda Samarqand — Buxoro yo‘nalishida sement-beton qoplamali zamonaviy pulli yo‘l qurilishi e’lon qilindi. Ushbu megaloyiha hisobiga Samarqanddan Buxoroga yetib borish vaqti 5 soatdan 1,5 soatga qisqaradi. Ayni yo‘nalishda tezyurar poyezd uchun yangi liniya qurish ham rejalashtirilgan.

Qadimda Buxoroga dunyoning turli burchaklaridan karvonlar kelgan. O‘sha zamonlarda ular o‘z yo‘lini o‘zi ochib ketavergan. Shu bois, qatnovga qulay manzillar tez rivojlangan. Bugun esa mamlakatlar iqtisodiy jozibadorlikni oshirish uchun, avvalo, logistika imkoniyatini kengaytirishi kerak. Bu borada Buxoroda ham tizimli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, xalqaro standartlar asosida “Yangi Buxoro” aeroporti quriladi. Loyiha qiymati 300 million dollarlik aeroport bir vaqtning o‘zida 20 ta samolyot va 1200 yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Buxoro shahri markazidan ushbu aeroportgacha 24 kilometrli yo‘l, avtobuslar uchun 5,5 kilometrli “BRT” yo‘lagi barpo etiladi.

Buxoroga Turkiyaning “Pegasus” aviakompaniyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri reyslarni yo‘lga qo‘ymoqda. Kelasi yili Malayziya, Indoneziya, Kuvayt, Misr va Bahrayn bilan ham aviaqatnovlarni boshlash belgilandi. Mana shuning o‘ziyoq “Yangi Buxoro” aeroporti loyihasining hayotiy zarurati va ushbu turistik qulayliklar hisobiga viloyat iqtisodiyoti, buxoroliklar hayotiga olib keladigan ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Yig‘ilishda yangi yo‘llar va aeroport bilan birga viloyat ichida harakatlanish qulayligini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Binobarin, joriy yilda yo‘llar holatini yaxshilash uchun 900 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa-da, 2000 kilometr ichki yo‘l va 266 ta ko‘prik ta’mirtalab ekani qayd etildi. Ularni yangilash va ekspluatatsiya qilishga xususiy investitsiyani jalb etish, asosiy sayyohlik yo‘nalishlarini bog‘laydigan muqobil pulli yo‘llar qurish imkoniyatlarini o‘rganish vazifasi topshirildi.

Jamoat transporti borasida ham muammolar bor. Jumladan, ayni yo‘nalish bo‘yicha taklif yetarlicha rivojlanmagani sabab aholining 80 foizi kundalik qatnovda yengil avtomobildan foydalanmoqda. Bu jihat odamlarning ortiqcha xarajatiga sabab bo‘lish bilan birga yo‘llarda tirbandlik hosil qilib, ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, viloyatga qo‘shimcha 120 ta zamonaviy avtobus keltirish jarayoni jadallashtiriladi.

Aeroport va temir yo‘l vokzallari atrofida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ko‘kalamzorlashtirishda esa Buxoroning iqlimi va tarixiy qiyofasiga mos yagona yondashuvni qo‘llash vazifalari belgilandi.

Turizm viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan. Joriy yilda Buxoroga 3,5 million xorijlik sayyoh kelishi kutilmoqda. Mazkur ko‘rsatkichni ikki baravar oshirish, turistlarning viloyatda qolish muddatini uzaytirish va turizm mavsumini yilning boshqa oylariga ham kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Ayni maqsadda Eski shahar, Yetti pir, Chor Bakr, Poykent, Varaxsha, Vardonze kabi tarixiy majmualar yagona konsepsiyaga bog‘lanadi. Bunda Buxoro shahridagi yirik turizm markazi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tadbirlarga mo‘ljallangan kongress-xoll hamda “Hilton” va “Holiday Inn” brendlari ostida mehmonxonalar qurilayotgani ham viloyatning turizm salohiyatini oshirishi shubhasiz.

Qolaversa, shaharning sakkizta markaziy ko‘chasi yangilanib, oltita xiyobon barpo etiladi. Buxoro tumanida esa ming gektar maydonda 500 million dollarlik turizm klasteri tashkil etiladi. Mazkur yo‘nalishdagi bu kabi bunyodkorlik ishlarining barchasi turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga minglab oilaga barqaror ish o‘rni, yuqori daromad, demakki, xotirjamlik, farovonlik olib kiradi.

Buxoroda kelasi yili 30 ga yaqin xalqaro tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda. Davlatimiz rahbari Buxoro bunga qanchalik tayyor degan savolni o‘rtaga qo‘yar ekan, viloyatda besh yulduzli mehmonxona yo‘qligi, yirik savdo va ko‘ngilochar maskanlar yetarli emasligi, mavjud xizmatlarning asosiy qismi Buxoro shahrida jamlanganiga e’tibor qaratdi. Shuning uchun mas’ullarga xorijlik sayyohlar sonini 7 millionga yetkazish bo‘yicha oyma-oy reja tayyorlash vazifasi topshirildi. Unda yangi turpaketlar, tadbirlar, tumanlarda ochiladigan obyektlar va sayyohlar jalb qilinadigan bozorlar aniq ko‘rsatilishi lozim.

Viloyatda qazilma boyliklar bo‘yicha katta zaxira va imkoniyatlar bor. Bundan samarali foydalanib, yangi zaxiralar iqtisodiy qiymatga aylantiriladi. Bunday ezgu tashabbuslar samarasini Buxoro aholisi O‘Z hayotida, O‘Z daromadida, turmush farovonligida his qilishi zarurligi qayd etildi.

Bu yil Buxoro iqtisodiyoti ilk bor 100 trillion so‘mlik marradan oshadi. Buni buxoroliklarning bugunidan rozi bo‘lib yashashida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, o‘tkazilgan so‘rovda viloyat ahlining 98 foizi so‘nggi yillarda hayoti sifati yaxshilanganini aytgan.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari salohiyatidan unumli foydalanish, aholi daromadini oshirish borasidagi ishlar ham tahlil qilindi. Qayd etilganidek, hududda iqtisodiy o‘sish tabiiy resurslar sanoati va qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ularning iqtisodiyotdagi ulushi 43 foiz, xizmatlar sohasi ulushi esa o‘n yilda atigi 33 foizdan 36 foizga oshgan.

Prezidentimiz iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va har bir tumanning o‘sish nuqtalarini aniqlashni talab qildi. Sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligidagi ko‘rsatkichlarni 1,5 baravar oshirish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqiladi.

Sanoat sohasida Buxoroning xomashyo, energiya resurslari va tadbirkorlik salohiyatini birlashtirib, uch yilda 28 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish imkoniyati borligi ta’kidlandi. Shundan 17 milliard dollari neft-gaz va kimyo sanoatiga to‘g‘ri keladi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi quvvatlarini oshirishga nufuzli texnologik kompaniyalarni jalb etish, Kogon tumanida esa neft-kimyo ilmiy-sanoat klasterini tashkil qilish vazifasi qo‘yildi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qayta tiklanuvchi energetika tizimi barqaror rivojlanmoqda. Bunda, shubhasiz, Buxoro viloyatidagi bunyodkorlik loyihalarining ham alohida o‘rni bor. Jumladan, hududda qisqa muddatda qariyb 2000 megavatt quvvatli elektr stansiyalari ishga tushirilgan. Kelgusi uch yilda yana 3100 megavattli shamol elektr stansiyalari va 1000 megavattli energiya saqlash tizimlari quriladi.

Bu yerda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan muhim bir jihat bor: yangi quvvatlar bilan bir vaqtda uzatish va taqsimlash infratuzilmasi rivojlantiriladi, 745 kilometr elektr tarmog‘i tortiladi.

Yig‘ilishda viloyat yengil sanoatini rivojlantirish masalasi ko‘rildi. Ayni maqsad yo‘lida Buxoroda ishlab chiqariladigan to‘qimachilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga kengroq olib chiqish, bunda xalqaro brendlar bilan hamkorlik tajribasidan foydalanish vazifasi belgilandi. Kelasi yili sohada kamida 1 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish va eksportni ikki barobar oshirish ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy sohadagi ishlar ko‘rib chiqilar ekan, xususiy bog‘cha va maktablarni ko‘paytirish, maktab bitiruvchilarining yarmini texnikumlarga jalb etish, texnikumlarni yirik tadbirkorlar va investorlar bilan bog‘lash masalalari muhokama qilindi. Viloyatdagi o‘nta davlat va xususiy oliy ta’lim muassasasida dual ta’lim qamrovi ikki barobar oshiriladigan bo‘ldi.

Bu yil viloyatda 29 ta shifoxona va poliklinika yangilandi. Mamlakatimiz yetakchisi tibbiy xizmat sifatini, ayniqsa, birlamchi bo‘g‘in faoliyatini yaxshilash, sohaga investitsiya jalb etish va xorijda tajriba orttirgan vatandoshlar imkoniyatidan foydalanish zarurligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda tarmoq va hududlar rahbarlarining hisoboti hamda kelgusi yilga mo‘ljallangan rejalari tinglandi.

Prezidentimiz o‘z hududini kompleks rivojlantirishda Olot tumani hokimi Nargiza Ne’matova alohida jonbozlik ko‘rsatayotganini e’tirof etib, davlat va boshqaruv idoralaridagi ko‘p yillik samarali mehnati, yangi ish o‘rinlarini ochish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘lidagi xizmatlari uchun uni “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlashga qaror qilganini e’lon qildi. Bu ham inson qadri ulug‘lanib, mehnati munosib taqdirlanayotganidan dalolat. Aynan mana shunday yondashuvlar jamlanib, mamlakatimizdagi islohotlarning harakatga keltiruvchi kuchini tashkil etadi.

Viloyat butun mamlakatdagi barqaror iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy birdamlikning lokomotiviga munosib hissa qo‘shayotgan hududlardan. O‘zbekiston yetakchisining viloyatga tashrifi ana shu kuchga yanada yuksak sur’at beradigan yangi tashabbuslar, yirik iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarga boy bo‘ldi.

Buxoroni ishlov berilayotgan zumradga o‘xshatgan edik. Bu qadim kentning usta zargarlari yaxshi biladi: zumradga qancha mohirlik bilan ishlov berilsa, qiymati o‘n karragacha oshadi. O‘tgan yillar davomida viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari ham o‘n karra oshdi. Boshlangan yangi loyihalar va ilgari surilgan tashabbuslar esa bu qiymatni yanada oshirishi, hududni bebaho javohirga aylantirishi shubhasiz!

Avazbek XUDOYQULOV,
Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

DRON TEXNOLOGIYALARI IQTISODIYOT TARMOQLARIGA KENG JORIY ETILADI

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, uchuvchisiz aviatsiyadan foydalanishni kengaytirish parvozlar xavfsizligi va fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlaydigan zamonaviy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda dronlardan foydalanishning yagona qoidalari, ularni hisobga olish va parvozlarni muvofiqlashtirish, yetkazilgan zararni qoplash hamda sug‘urtalash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Shu maqsadda uchuvchisiz aviatsiya vositalari haqidagi ma’lumotlarni birlashtiruvchi yagona raqamli axborot tizimini shakllantirish, parvoz hududlarini aniq belgilash va ulardan foydalanish tartiblarini joriy etish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Taqdimotda ushbu yangi yo‘nalish uchun malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion ekotizimni rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Xususan, kelgusi o‘quv yilidan Transport universitetida uchuvchisiz aviatsiya tizimlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, ta’limni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarning zamonaviy aviatsiya texnologiyalariga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga ilg‘or xorijiy tajriba asosida uchuvchisiz aviatsiya tizimlarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zA

Buyuk o‘zbek yo‘li



BUGUNGI O‘ZGARISHLARNI SHUKRONALIK NIGOHI BILAN KO‘RAYLIK!



Rahmon MUHAMMADIYEV, O‘zbekiston Qahramoni, tibbiyot fanlari doktori, professor

Kasbim taqozosi bilan ellik yildan buyon yurt kezaman. Viloyatlarda bo‘laman. Borgan manzillarimni beixtiyor boshqalari bilan qiyoslayman. Vatanimizning kechagi kuni bilan bugunini taqqoslayman.

Ko‘z shifokoriman. Faoliyatim davomida minglab ko‘zlarga tikilib, ularga davo qidirgandirman, shifo ulashgandirman, umid chiroqlarini yoqqandirman. Obrazli qilib aytganda, ko‘zlar bilan so‘zlashganlardanman. Zero, oftalmolog uchun har bir ko‘z — alohida bir taqdir.

Aslida, bu mening professional ishim — taqdirim. Shunga o‘qidim, o‘rgandim, tajriba orttirdim. Bugun o‘z tajribamni yoshlarga o‘rgatyapman. Xorij safarlaridan qaytib, yurtimiz zaminiga qadam qo‘yganimdan ko‘nglim yorishadi. Qalbim o‘zgacha tuyg‘uni tuyadi. Boisi, Vatanimizda meni ko‘zida shukronasi bor insonlar kutib oladi. Bu shukrona o‘z-o‘zidan, notabiiy kelmaydi, ko‘ngildan chiqadi. Zero, ko‘zlar aldamaydi.

Tibbiyot oliygohini tugatib, bir muddat qishloq ambulatoriyasida, so‘ng Denov tumanidagi tibbiyot birlashmasiga qarashli shifoxonada ishlay boshladim.

Shifoxonadagi ishlarim yaxshilanib borgani sari meni hurmat qiladigan, yaxshi ko‘radiganlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, yomon ko‘radiganlar ham shunchalik ko‘payib, tobora ortib borardi. Dunyoning bu siru sinoatini yechishga inson ojizlik qiladi. Qilgan xizmatlaringiz, ilmiy ustunligingiz ayrim kishilar qalbida faqat hasad o‘tini yoqarkan.

Davlatlar ham xuddi shunday.

Yurt tinimsiz taraqqiyot sari yuzlana borarkan, unga havas qiladiganlar qatori hasad qilguvchilar ham topilaveradi. Bu haqda keyinroq yana to‘xtalarmiz.

Hozir esa yaqin tariximizga bir qur nazar tashlasak. Mustaqilligimizning dastlabki yillari edi. Qishloq ambulatoriyasida ishlaganimda atigi ikki xonali bino bo‘lardi. Tashlandiq kulbachaga o‘xshash bu joy na tibbiy jihoz, na mutaxassis, na xonalardan yolchigandi. Aytsam ishonavering, kasal o‘tirsa, shifokorga joy yo‘q, shifokor o‘tirsa, bemor tik turishga majbur edi.

Bu holatni yaqinda Prezidentimiz bilan Ko‘ksaroy qarorgohida tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari bilan uchrashuv chog‘ida ham aytdim.

Chindan ham inson qadrini ta’minlash uchun qanday sharoit kerak deydigan hozirgidek davlat bormidi u paytlarda?! Viloyat va tuman markazidagi mutasaddilarning qosh-qovog‘iga qarab, idorasiga qatnay-qatnay, ikki xonali ambulatoriya o‘rniga sakkiz xonali bino qurdirdik.

Tuman birlashmasida bosh shifokor bo‘lib ishlay boshladim. Viloyatdagi eng aholisi ko‘p tuman — Denov tibbiyoti uchun almisoqdan qolgan atigi 4 ta avtomashina biriktirilgan bo‘lib, undan ikkitasi yaroqsiz, yaroqlilarida ham maxsus aloqa vositalari va zarur jihozlar yo‘q edi. Qizig‘i, bemor oldiga borish uchun mashinaga yonilg‘ini kim quyadi degan savol berilardi. Hozir aytishga ham bir oz tortinsak-da, aytaqolay, hatto tez yordam chaqirgan bemorning uyiga borsak, 3-4 litr benzinga pul berarmikan deb qo‘liga sarg‘ayib qarab turgan kunlar ham ko‘p bo‘lgan.

Yuqoriga dardingizni aytsangiz, gap aylanib, boshingizga kaltak bo‘lib tushadigan zamonlar edi. Lekin vijdonga sodiq qolsangiz, hammasiga erisharkansiz.

O‘sha zamonning kuydi-yondisiga o‘zimning faoliyatimdan ko‘p misollar keltirsam, ranjimassiz. Chunki shu orqali kecha va bugunni taqqoslash imkoni bo‘ladi-da. Xullas, tuman ambulatoriyasida ishlab yuribmiz. Asta-sekin asossiz yozdi-chizdilar boshlandi. Tekshirishga kelganlarga asosli iddaolarning qizig‘i yo‘q. Ochiqlik, shaffoflik va haq gapni eshituvchi idora anqoning urug‘i edi o‘sha kezlar. Hozir-chi?..

Davlatimiz rahbarining qat’iy irodasi ortidan bugunga kelib, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa chinakam xizmat qiladigan bo‘ldi.

O‘sha yillari shifokorlar orasidan ikki nafari deputatlikka nomzodini qo‘ya boshladi. Ajablanarlisi, ularning kim ekani birovni qiziqtirmas, nomzodlarni, asosan, hokimlik vakillari qo‘llab-quvvatlardi. Bugungidek birov aralasha olmaydigan xalqchil va shaffof saylov komissiyasi qayda edi deysiz?!

O‘z ishini vijdonan bajarmaganlarga yo‘l bo‘lsin, ana soya ostida yurgan ko‘plab soha fidoyilari bor-ku desangiz, birov eshitmaydi. Yozuv-chizuvlardan, saylovlardagi qator nohaqliklardan keyin oldimga katta maqsadlar qo‘ydim. Yanada kuchli bo‘ldim. Holatlar kurashga da’vat etdi.

Saylov — mardlar maydoni. Xalq deputatlari viloyat kengashi va Oliy Majlisga deputatlikka nomzodimni qo‘ydim. Elni aldab bo‘lmaydi. El biladi. Saylandim. O‘shanda Sho‘rchidan Denovga qarab ketyapman. Mashina rulida o‘g‘lim o‘tiribdi, men esa orqa o‘rindiqda. Sho‘rchidan Denovgacha ko‘zimdan yosh otilib bordim. O‘g‘lim meni ko‘rib: “Dada, nimaga yig‘laysiz?! Axir yutib chiqdingiz-ku”, deydi. Mening esa gapirishga tilim aylanmaydi, xursandchilik va sevinch yoshlarimni to‘xtata olmayman. Negaki, adolat baribir g‘alaba qozonishini hayotning o‘zi isbotlagandi.

Uzoq yillar Afg‘onistonning Kobul va Mozori Sharif, Pokistonning Karachi, Lahor va boshqa o‘nlab shaharlarida bemorlarni davoladim. Fransiyaning Parij shahridagi milliy oftalmologiya markazida, AQSHda tajriba almashuv amaliyotini o‘tadim. Termiz shahridagi ko‘z kasalliklari dispanserida uzoq yillar rahbarlik qilib, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya, Malayziya, Fransiya va AQSH kabi qator davlatlar mutaxassislari bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydim. Dunyoning yirik shaharlarida bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman va qurultoylarda ko‘z kasalliklarini tashxislash va mikrojarrohlik yo‘li bilan davolashning o‘zim kashf etgan yangi usullari haqida ma’ruzalar qildim.

Shu yillarda yuragimni kemirgan savol bunday bo‘lardi: qachon bizning tibbiyotimiz ham rivojlangan davlatlar tibbiyoti darajasiga chiqadi?

Vaqt o‘tdi. Bo‘larkan-ku, hozir biz ana shu tibbiyoti rivojlanganlar darajasidamiz. Darvoqe, o‘rni kelganda aytay, hozir Termizdagi tibbiyot oliygohida chet eldan kelgan 200 dan ortiq talaba tahsil olyapti.

Vaholanki, avvallari xorijda mening ma’ruzam qanchalik dolzarb bo‘lmasin, tibbiyotimiz ulardagidek emasligi bois ham e’tibor sust bo‘lardi. Bugun esa dunyoning turli burchaklarida davlatimizni tanishtirib, minbarga chiqib borarkanman, eng yaxshi mutaxassislar ham bizni tinglayotganining guvohi bo‘lyapman. Mana rivojlanishning amaliy ifodasi. Mana yangilanish mevasi, islohotlar samarasi.



Mutaxassis sifatida aytaman: bugun yangi O‘zbekiston tibbiyotidagi o‘zgarishlar qamrovi juda ulkan. Jahon aylanganman, bilaman: dunyo standartlari darajasidagi tibbiy uskunalar nafaqat viloyatlar markazida, balki tumanlarda ham mavjud. Avvallari tumanda ishlaganimda bir holat bo‘lgan. Tuman shifoxonasiga bitta magnit rezonansli tomografiya uskunasini olish uchun o‘n yil viloyat va respublika sog‘liqni saqlash mas’ullari bilan kurashganman. Ololmaganman. “Falon pul turadi”, deyishgan. Bugun bitta tumanda nafaqat davlat tibbiyot muassasasida, balki xususiy tibbiy sektorda ham ko‘plab shunday uskunalarni istaganingizcha uchratasiz. Endi yangilik bo‘lmay qolgan. Xo‘sh, o‘shanda qizg‘anilgan pul insonning qadri, salomatligidan ustun turarmidi?!

Bugun vaziyat tamomila boshqacha. Ishlar ko‘lami keng. Islohotlarning mazmun-mohiyati bo‘lakcha. Buni davlatimiz rahbari ham o‘sha uchrashuvda alohida qayd etib, “Oilasining baxtini ko‘rish, halol mehnat qilib, orzulariga yetish, umrini mazmunli o‘tkazish uchun odamga, avvalo, sog‘liq kerak. Shu bois, inson salomatligini asrashni islohotlarimizning eng muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilaganmiz”, deya ta’kidladi.

Men hamon bitta narsaga tushunmayman. Nega shu paytgacha O‘zbekistonda transplantatsiya amaliyotiga ruxsat berilmagan? Bundan kim manfaatdor edi? Mana, nihoyat, yangi davrimizda bu amaliyotga ham ruxsat tegdi. Osmon uzilib, yerga tushgani yo‘q. Qaytanga hammasi yaxshi bo‘lib bormoqda. Axir o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, u paytlarda bechora odamlar yurak va buyrak almashtirish uchun minglab dollar mablag‘ini ko‘tarib, xorijiy davlatlar sari ketardi. Hozir o‘zimizda — viloyat markazlari tugul, tumanda ham shunday murakkab jarrohlik amaliyoti samarali o‘tkazilyapti.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2018-yili tashkil etilgan Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filialida tahsil olib chiqqan birinchi qaldirg‘och mutaxassislar — shogirdlarim, mahalliy yosh shifokorlar tomonidan Termiz shahrida yaqinda ochilgan zamonaviy tibbiyot klasterida murakkab turdagi jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli o‘tkazilyapti. Bundan ko‘nglim tog‘dek ko‘tariladi.

Ajdodlarim hozirgi Uzun tumani Bobotog‘ hududida yashab o‘tgan. Otam Omon bobo qirq to‘rt yil Bobotog‘dagi maktabda ona tili va adabiyotidan dars bergan, maktab direktori bo‘lib ishlagan. O‘sha kezlari sog‘liqni tiklash, bozorlik qilish yoki boshqa yumushlar uchun tuman markazigacha uzoq yo‘l bosib, ot-ulovda enib kelinardi. Hozir o‘zim tug‘ilgan o‘sha tog‘li Chagam qishlog‘iga borganimda, ravon yo‘llarni, kecha-yu kunduz o‘chmaydigan tungi chiroqlarni, zamonaviy maktab va tibbiyot maskanini, asosiysi, odamlarning shukronasini ko‘rib, yayrayman, xursand bo‘laman.

Bu o‘z-o‘zidan bo‘lgan emas, davlatimiz rahbarining katta siyosiy irodasi bilan bo‘lyapti deyman chagamliklarga. To‘g‘rida, mamlakatimiz yetakchisi inson qadrini ulug‘lamasa, sog‘lom va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratmasa, bunday o‘zgarishlar qayda edi?!

E’tibor qiling: so‘nggi o‘n yilda yurtimizda 10 million kishiga xizmat ko‘rsatadigan yangi poliklinika va shifoxonalar ishga tushirilib, 58 ming shifo o‘rni ochildi. Zamonaviy muassasalar ko‘payishi va xususiy sektor rivojlanishi natijasida tibbiy xizmatlar hajmi uch karra oshdi. Boya aytganimdek, ilgari faqat chet elda bajarilgan tug‘ma yurak nuqsonlarini davolash, a’zolar transplantatsiyasi, robot jarrohligi va bosh miyadagi murakkab amaliyotlar kabi yuzdan ziyod xizmat bugun mamlakatimizda ko‘rsatilmoqda.

Odamzod yaxshilikka tez ko‘nikadi. Bir-ikki marta “Bo‘larkan-ku!” deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo‘lganday o‘tib ketaveradi. Dorilamon kunlarning qadri keyin bilinadi. Shu ma’noda, aziz yurtimizdagi bunday kunlar dunyo turgunicha tursin degim keladi.

Xorijda o‘qib yurgan paytlarimda miopiya xastaligining xirurgik usulini, ya’ni odam murdasining ko‘z qobig‘ini bemorning yupqalashgan ko‘z olmasi qobig‘iga to‘rt tarafdan tikib mustahkamlash operatsiyasi o‘tkazilganini ko‘rgandim. Bu jarayonni puxta o‘rganib, tajribamni oshirishga harakat qildim. Keyinchalik bu operatsiyani yaxshi bajaradigan bo‘ldim. Ilgari xorijda murda to‘qimasini muammolarsiz olardik. Keyinchalik bu holat cheklanib qoldi. Ayrim qonunlar murda to‘qimasini ishlatish mumkin emasligini ko‘rsatib, imkoniyatlarimizni chegaralab qo‘ydi.

Adabiyotlarni o‘qib-o‘rganib, qo‘y yurak pardasining morfologik tuzilishi odam ko‘z qobig‘i (sklera) tuzilishiga o‘xshash ekanini bilib qoldim va shogirdim O‘ktam Saydaliyev bilan qo‘y yurak pardasini olib, keyinchalik esa quyon ko‘z organlaridan bemorlarning xasta ko‘zini davolashda foydalana boshladik. Bu esa juda yaxshi klinik natija berdi. Bemorlar ham xursand, biz ham mamnun edik.

Aniqroq tushuntirsam, biz dunyoda birinchi bo‘lib murda to‘qimasi alloplant o‘rniga qo‘yning yurak pardasidan ko‘z kasalliklarini davolashda qo‘llash uchun ksenotransplantat yaratgandik. Bu ish o‘sha paytlarda yangi imkoniyatlarni izlash nuqtai nazaridan oftalmoxirurgiyada katta ahamiyatga ega edi.

Tasavvur qiling: inson ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish xavfi bilan yuzma-yuz turibdi. Shifokor esa mavjud imkoniyatlar bilan cheklanib qolmaydi. U “Yana qanday yo‘l bor?” degan savolni o‘ziga beradi. Ilmning harakatlantiruvchi kuchi ham ana shu savolda. Yangi yechim izlash, yangi imkoniyat yaratish — bemor uchun umid eshigini yana bir bor ochishda gap ko‘p.

2002-yili Germaniyaning Gannover shahrida o‘tkazilgan jahon sog‘liqni saqlash ko‘rgazmasida mazkur ksenotransplantatning namoyish etilgani O‘zbekiston tibbiyotining ilmiy salohiyatini xalqaro maydonda tanitishga xizmat qildi. Keyinchalik ushbu davolash usuli va ixtiro turli davlatlar oftalmologlariga yutuq sifatida namoyish etib borildi.

Ammo u paytlari fanda biror yangilik qilsangiz, qilganingizga pushaymon bo‘lardingiz. Har xil idoralarga chaqirishlar, so‘roqlar, taqiqlarga duch kelardingiz. Hozirgidek davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovni tushimizda ham ko‘rmasdik. Ammo yiqilib, yana o‘rnidan turishni bilgan odam eng kuchlidir. 1996-yildan boshlagan ishimiz 2004-yilga kelib, barcha mutaxassislar, ilmiy xodimlar orasida, ko‘plab mamlakatlarda tanilib ulgurdi. Bu ixtiromiz respublikamizning deyarli barcha yirik ko‘z kasalliklari shifoxonalarida qo‘llana boshladi.

El salomatligi yo‘lidagi intilishlarimiz, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi kamtarona mehnatlarimiz, jahon hamjamiyatida O‘zbekiston shon-shuhratini ulug‘lashga qo‘shgan hissamiz uchun “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandik.

Qahramonlik tushunchasi haqida har kim har xil fikrlashi mumkin. Kimdir uni jang maydonidagi jasorat bilan bog‘laydi. Kimdir og‘ir vaziyatda inson hayotini saqlab qolishda ko‘radi. Kimdir esa yillar davomida o‘z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilishni qahramonlik deb biladi.

Bir shifokor sifatida men uchun qahramonlik — har kuni bemor oldiga mas’uliyat bilan kirish. Olim uchun — javobi hali topilmagan savol ortidan yillar davomida izlanish. Ustoz uchun — bilimlarini shogirdlariga berish. Inson uchun esa imkoniyatidan boshqalar manfaati yo‘lida foydalanish deb bilaman.

Bugungi o‘zgarishlar, ayniqsa, tibbiyot sohasidagi yangilanishlarni ko‘rib, shu kasb sohibi bo‘lganimdan faxrlanaman. Xursand bo‘laman. Binobarin, hozirgi sharoit bilan kechagi holat, bugungi mutaxassis bilan kechagisi orasida katta farq bor. Bu nimalarda ko‘rinadi? Ushbu savolga javob istagan insonni chekka qishloqlarda barpo etilgan tibbiyot muassasalari, ushbu yo‘nalishda o‘qish istagidagi yoshlar uchun qurilgan zamonaviy o‘quv muassasalariga olib borgan bo‘lardim.

Shuningdek, endi sohada ta’lim, qurilish, sanitariya-gigiyena, bemorlar xavfsizligi va xodimlar madaniyatini qamrab oladigan “Yangi O‘zbekiston tibbiyot standartlari” joriy etilyapti. Birlamchi bo‘g‘inga e’tibor yanada kuchaytirilyapti.

Eng yaxshi shifokor va hamshiralarni rag‘batlantirish qamrovi kengaytiriladi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladigan eng yaxshi o‘nta loyiha muallifiga grantlar ajratiladi.

Hozir yurtimizdagi davlatga tegishli 11 ta OTMda yiliga 15 ming shifokor tayyorlanmoqda. Bu — juda katta kuch. Yaratilayotgan sharoitlar esa ayni shu mutaxassislar, bo‘lajak shifokorlarning yaxshi bilim olishi va xalqimiz salomatligi yo‘lidagi sa’y-harakatlardir.

Prezidentimiz Ko‘ksaroydagi muloqotda **“Men bir narsani so‘rayman: har bir tibbiyot xodimi o‘ziga savol bersin — bugun inson salomatligi uchun kechagidan ko‘ra ko‘proq nima qila oldim? Agar har birimiz shu savolga javob qidirib ishlasak, tibbiyotimizda ham, xalqimizning salomatligida ham katta o‘zgarishlar bo‘ladi”,** dedi. Bu ayni haq gap. Zero, o‘z kasbini sevgan inson sidqidildan mehnat qiladi. Boshqalarga foyda beradi. Mehnatining samarasini ko‘radi.

Kasbim taqozosi bilan ayta olamanki, inson ko‘zi — olamdagi eng nozik mo‘jizalardan biri. Unda butun dunyo aks etadi: tongning ilk shu’lasi, ona chehrasi, farzand tabassumi, kitobdagi harflar, gullarning maftunkorligi, tog‘larning ulug‘vorligi, osmonning beqiyos kengligi...

Ko‘rish — oddiy fiziologik jarayon emas. U — hayotni his qilish, insonlar bilan muloqot o‘rnatish, dunyoni anglash, o‘z taqdiringizni erkin qurish imkoniyati. Shuning uchun ko‘zga nur bag‘ishlashni hayotining bosh maqsadiga aylantirgan insonlar haqida so‘z ketganda, oddiy kasb yoki lavozim doirasida fikr yuritish kamlik qiladi. Bunday insonlar hayotida kasb — taqdirga, ilm — e’tiqodga, shifokorlik esa insonparvarlik falsafasiga aylanadi.

Qiziq jihat shundaki, ko‘z bilan ishlagan sari inson qalbini ham o‘rganishga intilarkansiz. Keyingi yillardagi katta o‘zgarishlar meni ruhlantirdi. Qo‘limga qalam olib, kitoblar yozib, chop ettirdim. Xususan, “Taqdir tuhfalari”, “Hayot saboqlari” nomli kitoblarim nashr qilindi.

Yoshim saksonning bo‘sag‘asida. Termizda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan oliygohda talabalarga saboq berarkanman, kitoblarimdagi ayrim hayotiy saboqlarni ham ularga ulashaman.

Avvalroq rivojlanayotgan yurtga havas qiladiganlar ham, hasadgo‘ylar ham bo‘lishi haqida so‘z boshlagandim. Mavridi keldi, aytay, O‘zbekiston bugun jadal rivojlanmoqda, har bir kunimiz yangi bir xushxabar bilan boshlanishiga ham o‘rganib qoldik. Darvoqe, “o‘rganib qoldik” iborasini bejiz ishlatmayapman. Yodingizdami, Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik lavozimini bajarishga kirishgan ilk kunlar, oylar... O‘sha vaqtlarda Shavkat Miromonovichning har bir chiqishini televideniye orqali butun vujudimiz ko‘z-quloqqa aylanib kuzatarmidik, ha, kuzatardik. Intiqlik bilan kutardik. Butun xalqimiz, yosh-u qari birdek kutardik. Propiska tizimi bekor bo‘lgani, valyuta ayirboshlashdagi erkinlik, plastik kartadagi pulimizni naqdlashtirish muammosi yo‘qolgani, qishloqlardagi chiroq o‘chmay qolganida qanchalik quvonganimizni bir eslaylik! Hozir bularni deyarli eslamaymiz, go‘yo shuncha o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘lib qolgandek.

Bularni yana bir aytishdan maqsadimiz bitta. Har bir quvonchli kunlarni eslab-eslab turish, bugungi tinch va osoyishta hayotimizning qadriga yetish uchun ham juda-juda zarur.

Shunday ekan, yana bir aytarim bor: azizlarim, shu Vatan bizniki, hayotimizdagi o‘zgarishlar o‘zimizniki! Islohotlarimiz ortga qaytmas tus oldi. Endi oldimizda yanada katta-katta marralar turibdi. Buning uchun hammamiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga yelkadosh bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz kerak bo‘ladi. Bu yo‘lda barchamizga Alloh madadkor bo‘lsin!

Prezidentimiz ilgari surgan 2027-yilni “Tabiatni asrash yili” deb e’lon qilish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Sammit shioridan kelib chiqib, barcha turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan va tillarimizdagi mushtarak so‘zlarni jamlaydigan “Umumturkiy so‘zlar lug‘ati”ni yaratish taklifi bildirildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 5-noyabr, 229-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Xalqaro hamkorlik

Joriy yil 29-30-oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Davlatimiz rahbari 30-oktabr kuni Turkiy davlatlar tashkilotining Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan 13-sammitida ishtirok etdi hamda tashkilot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.



TURKIY ASR: TILDA, FIKRDA VA ISHDA BIRLIK

Bir bo‘lsak, yanada qudratlimiz, hamjihat bo‘lsak, yanada yuksak marralarga erishamiz



Latofat BO‘RIYEVA,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ilmiy xodimi

Bugun Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Turkiyani Yevropa bozori bilan bog‘lovchi yirik iqtisodiy hududni qamrab olgan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, TDT mamlakatlarining jami nominal yalpi ichki mahsuloti qiymati qariyb 2,3 trillion dollarni, xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha esa 6,2 trillion dollardan ortiqni tashkil etdi. Ularning umumiy tashqi savdo aylanmasi 1,2 trillion dollardan oshdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun yirik bozor mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi mavjud iqtisodiy salohiyatga nisbatan hali cheklangan darajada qolmoqda. Shu bois, keyingi bosqichda asosiy e’tibor tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, transport xarajatlarini kamaytirish va qo‘shma investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratilmoqda.

TDT mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibidagi farqlar bunday hamkorlikni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Turkiya mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik va kimyo sanoatida yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo‘lsa, Qozog‘iston va Ozarbayjon energetika resurslari bilan bir qatorda metallurgiya va neft-kimyo sanoatida salmoqli o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati, elektrotexnika, avtomobilsozlik, kimyo va oziq-ovqat sanoati hamda rangli metallurgiya rivojlanmoqda. Qirg‘izistonning yengil sanoat va qishloq xo‘jaligidagi imkoniyatlari umumiy ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bunday sharoitda TDT doirasidagi iqtisodiy integratsiya samaradorligi ko‘proq o‘zaro savdo hajmi bilan bir qatorda a’zo mamlakatlar korxonalarining bir-biri bilan ishlab chiqarish zanjirlari orqali qay darajada bog‘langanida ko‘rinadi.

O‘zaro savdo hajmi sezilarli darajada oshganiga qaramay, mavjud imkoniyatlar hali to‘liq ishga solinmagan. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston TDT mamlakatlariga eksport hajmini qo‘shimcha 2,7 milliard dollarga oshirish imkoniyatiga ega. Eng katta zaxira Turkiya bozoriga to‘g‘ri kelib, 1,8 milliard dollarni tashkil etadi. Qozog‘istonning qo‘shimcha eksport salohiyati 500 million dollar, Vengriyaniki 200 million dollar, Qirg‘izistonniki esa 100 million dollar miqdorida baholanmoqda.

Shu bilan birga, bozor sig‘imining kattaligi eksportni oshirish uchun yetarli emas. Eksport qiluvchilarning raqobatbardoshligiga mahsulot sifati, standartlarni o‘zaro tan olish, sertifikatlashtirish, transport xarajatlari, yetkazib berish muddatlari va savdoni moliyalashtirish imkoniyatlari bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida katta imkoniyatlar mavjud. TDT mamlakatlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori umumiy hajmi qariyb 72 milliard dollarga baholanmoqda. O‘zbekiston uchun meva-sabzavotlar, qayta ishlangan oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari, elektrotexnika, qurilish materiallari, mineral o‘g‘itlar, mis va polimerlardan tayyorlangan mahsulotlar istiqbolli eksport yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

Qo‘shimcha eksport salohiyatining asosiy qismi Turkiya va Qozog‘iston bozorlariga to‘g‘ri keladi. Turkiya bozori ichki talab hajmi, shuningdek, Yevropa va O‘rtayer dengizi mintaqasi bozorlariga chiqish imkoniyatlari jihatidan ahamiyatlidir. Qozog‘iston esa geografik yaqinligi, umumiy transport infratuzilmasi va Markaziy Osiyodagi ishlab chiqarish aloqalari tufayli O‘zbekiston korxonalari uchun sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda tabiiy hamkordir.



Shunday qilib, 2,7 milliard dollarlik qo‘shimcha eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarish sanoat, savdo va transport siyosatining umumiy vazifasiga aylanmoqda.

O‘zaro savdo bilan bir qatorda TDT mamlakatlaridan O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimi ham sezilarli darajada o‘sdi. 2017-2025-yillarda tashkilotga a’zo davlatlardan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 11,5 milliard dollardan oshdi. 2025-yilning o‘zida 3,8 milliard dollarlik investitsiya jalb qilindi. Turkiya 2,4 milliard dollarlik investitsiya hajmi bilan TDT mamlakatlari orasida O‘zbekistonning eng yirik investori bo‘ldi. Mablag‘lar asosan qayta ishlash sanoati, energetika, qishloq xo‘jaligi, qurilish va logistika sohalariga yo‘naltirildi.

2026-yil aprel holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda TDT mamlakatlari kapitali ishtirokida 4500 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Bunday korxonalarning ko‘payishi iqtisodiy munosabatlarda sifat jihatidan o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Chunki to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar kapital, texnologiyalar, ish o‘rinlari, mahalliy yetkazib beruvchilar va eksport kanallari orqali mamlakatlar iqtisodiyotini savdo operatsiyalariga nisbatan uzoqroq muddatga bog‘laydi. Shu bois, qo‘shma sanoat loyihalarining ko‘payishi o‘zaro savdo yanada o‘sishi uchun ham asos bo‘lishi mumkin.

Masalan, bir mamlakatda ishlab chiqarilgan butlovchi qismlar ikkinchi mamlakatda tayyor mahsulot ishlab chiqarishda qo‘llanishi, keyinchalik esa ushbu mahsulot uchinchi mamlakat bozoriga eksport qilinishi mumkin. Bunday holatda o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari ortida yagona ishlab chiqarish zanjiri yuzaga keladi. Turkiy davlatlar iqtisodiyotining turli sohalarga ixtisoslashgani aynan shunday hamkorlik modelini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Mazkur amaliy tashrif O‘zbekistonning Turkiya bilan hamkorlik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Tashrif davomida Biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengashni ta’sis etish to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Shuningdek, ikki tomonlama hujjatlar to‘plami qabul qilindi. Ular orasida Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim va uni amalga oshirish bo‘yicha ma’muriy kelishuv, shuningdek, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha protokol o‘rin oldi.

Bundan tashqari, tashrif doirasida Prezidentimiz Turkiyaning yetakchi biznes vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Unda ushbu kompaniyalarning O‘zbekistondagi faoliyatiga doir rejalar va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

> **Bugun Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Turkiyani Yevropa bozori bilan bog‘lovchi yirik iqtisodiy hududni qamrab olgan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, TDT mamlakatlarining jami nominal yalpi ichki mahsuloti qiymati qariyb 2,3 trillion dollarni, xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha esa 6,2 trillion dollardan ortiqni tashkil etdi.**

So‘nggi davrda TDTning iqtisodiy hamkorlik tizimidagi muhim institutsional o‘zgarishlardan biri Turkiy investitsiya jamg‘armasining amaliy faoliyatga o‘tishi bo‘ldi.





2025-yilda jamg‘armaning ustav kapitali 500 million dollardan 600 million dollarga oshirildi. O‘zbekistonning ulushi esa 100 million dollarni tashkil etadi. Jamg‘armaning iqtisodiy ahamiyati uning o‘z kapitali hajmi bilan cheklanmaydi. Ushbu mablag‘lar asosida boshqa xalqaro moliya institutlarining resurslarini jalb qilish imkoniyati yanada muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

2026-yil 17-iyunda Turkiy davlatlar tashkiloti investitsiya jamg‘armasi va Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi 50 million dollargacha bo‘lgan qo‘shma islomiy moliyalashtirish dasturi to‘g‘risida bitim imzoladi. Dastur Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekistonda mahalliy moliya institutlari orqali kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni nazarda tutadi.

Joriy yil 1-iyulda yana bir moliyalashtirish mexanizmi ishga tushirildi. Turkiy investitsiya jamg‘armasi Qozog‘istondagi KMF Bank bankiga 10 million dollargacha, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa 50 million dollargacha mablag‘ ajratish bo‘yicha bitimlar imzoladi. Ushbu resurslarni mikro, kichik va o‘rta korxonalarni kreditlash hajmini oshirishga yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Har ikki misol yangi tendensiyani ko‘rsatadi. Jamg‘arma o‘z mablag‘larini bevosita taqsimlovchi moliya instituti sifatida faoliyat yuritish bilan cheklanmay, TDT hududidagi loyihalarga xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish platformasi sifatida ham rivojlanishi mumkin.

Bunday model jamg‘armaning 600 million dollarlik o‘z kapitalidan sezilarli darajada ko‘p investitsiya resurslarini safarbar etish imkonini beradi. Ushbu mexanizm, ayniqsa, sanoat kooperatsiyasi, transport, energetika, raqamli infratuzilma va kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

TDT hududida savdoni rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omillardan yana biri transport xarajati va yuklarni yetkazib berish muddatlaridir. Markaziy Osiyo mamlakatlarining dengiz portlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati mavjud emasligi eksport raqobatbardoshligida logistika xarajatining ahamiyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, Kaspiy dengizi, Ozarbayjon, Gruziya va Turkiya orqali Yevropa bozoriga olib chiquvchi Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishi — O‘rta yo‘lak TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim infratuzilmaviy elementlaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston uchun ushbu yo‘nalishning ahamiyati “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi bilan yanada ortmoqda. Ushbu temir yo‘lning Kaspiy yo‘nalishi bilan bog‘lanishi O‘zbekistonning Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Kavkaz va Yevropa bilan bog‘lovchi Sharq — G‘arb logistika zanjiridagi ishtirokini kengaytirishi mumkin.

Zamonaviy transport yo‘lagi avtomobil va temir yo‘llar bilan cheklanmaydi. Yuk tashish vaqti va qiymati ko‘p jihatdan chegaralardan o‘tish tartibi, ruxsat berishga doir hujjatlar, bojxona deklaratsiyalari, transport yuk xatlari va yuklarni kuzatish tizimiga bog‘liq. Shu sababli raqamlashtirish TDTning transport siyosatida alohida o‘rin egallaydi.

Ayni maqsadda tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida e-Permit elektron ruxsatnomalar tizimi joriy etilmoqda. TDT transport vazirlarining 2026-yil 23-aprelda Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan 9-yig‘ilishida e-CMR elektron xalqaro tovar-transport yuk xatini joriy etish to‘g‘risida memorandum imzolandi.

May oyida Turkiston shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, e-Permit tizimi TDTga a’zo mamlakatlar bilan to‘liq ishga tushirilgan. Prezidentimiz O‘rta yo‘lakni “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li bilan bog‘lash, soddalashtirilgan bojxona yo‘lagini rivojlantirish, ma’lumotlar almashinuvi va yuklarni kuzatish jarayonlarini raqamlashtirishni taklif etdi.

Ushbu mexanizmlarni yagona tizimga birlashtirish orqali TDT hududida tovarlarning jismoniy harakati bilan bir vaqtda hujjatlar va ma’lumotlarning elektron almashinuvini ta’minlaydigan yagona logistika muhiti yaratilishi mumkin.

2026-yilda TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning yana bir yangi yo‘nalishi yaqqol namoyon bo‘ldi. 15-may kuni Turkiston shahrida “Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish” mavzusida bo‘lib o‘tgan norasmiy sammitda raqamli infratuzilma, innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellektdan amaliy foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston mintaqadagi davlatlarning ma’lumotlar markazlarini yuqori tezlikdagi aloqa kanallari orqali bog‘lashni nazarda tutuvchi “Raqamli turkiy yo‘lak” konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. Shuningdek, sun’iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tarmog‘ini tashkil etish, Toshkentda Texnologiyalar forumini o‘tkazish va mamlakatlar o‘rtasida texnologik hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surildi.

Bu jarayonda transport va raqamli integratsiya o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjud. Agar O‘rta yo‘lak tovarlar harakatini ta’minlasa, “Raqamli turkiy yo‘lak” ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirishga xizmat qiladi. Natijada TDT hududida infratuzilmaning ikki turi — jismoniy va raqamli infratuzilma parallel ravishda rivojlanishi mumkin.

Jismoniy infratuzilma avtomobil va temir yo‘llar, portlar, logistika markazlari hamda bojxona infratuzilmasini qamrab oladi. Raqamli infratuzilma esa ma’lumotlar markazlari, telekommunikatsiya kanallari, bulutli hisoblash texnologiyalari, sun’iy intellekt infratuzilmasi va raqamli xizmatlarni birlashtiradi.

Ushbu ikki infratuzilmaning o‘zaro bog‘lanishi elektron savdo, raqamli logistika, moliyaviy texnologiyalar (fintex), transchegaraviy xizmatlar va ishlab chiqarishni raqamli boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Anqara shahrida “Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida bo‘lib o‘tgan sammitda o‘zaro savdoni kengaytirish, investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish va yagona transport-logistika makonini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti sammitdagi nutqida tashkilot doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari TDT doirasida dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazish, shuningdek, turkiy davlatlarning yondashuvlari va sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish muhimligini ta’kidladi.

Shu maqsadda uchinchi mamlakatlar bilan “Turkiy davlatlar tashkiloti plyus” formatidagi hamkorlikni sohaviy vazirlar uchrashuvlaridan boshlash taklif etildi. Ushbu uchrashuvlar savdo, transport, investitsiyalar va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda aniq qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilishi lozim.

Texnologik hamkorlik va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, jahon bozoriga birgalikda chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 100 ta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab oluvchi “Turkiy dunyo — 100” dasturi noyob va strategik minerallarni chuqur qayta ishlash, “yashil” energetika uchun uskunalar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda yuqori daromad keltiradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Ushbu loyihalarni amalga oshirishda Turkiy investitsiya jamg‘armasi va xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy mexanizmlarga ehtiyoj ortib borayotganini hisobga olib, O‘zbekiston Prezidenti “Tijorat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida”gi ko‘p tomonlama shartnomani ishlab chiqish zarurligini ta’kidladi. Ushbu hujjat sud qarorlarini o‘zaro tan olish va ijro etish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, tegishli vakolatli organlar o‘rtasida huquqiy yordam so‘rovlari va hujjatlarni elektron shaklda almashishga mo‘ljallangan raqamli platforma yaratish taklif etildi.

Hozirgi sharoitda turkiy davlatlarning tranzit imkoniyatlari tobora katta strategik ahamiyat kasb etayotganidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari TDT mamlakatlarining xalqaro yuk tashish va logistikadagi ishtirokini kengaytirish uchun O‘rta yo‘lak va unga tutash transport yo‘laklarini yagona iqtisodiy tizimga aylantirish zarurligini ta’kidladi.

Mamlakatlarning turizm sohasidagi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish maqsadida “Turkiy turizm alyansi”ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Turkiy davlatlar fuqarolarining safarlarini yengillashtirish uchun “Fuqarolarning o‘zaro safarlari to‘g‘risida”gi ko‘p tomonlama bitimni ishlab chiqish taklif etildi. Unda ID karta asosida safar qilish imkoniyatini kengaytirish, chegaralardan o‘tish va qabul qiluvchi davlat hududida bo‘lish tartiblarini soddalashtirish nazarda tutilishi lozim.

Prezidentimiz ilgari surgan 2027-yilni “Tabiatni asrash yili” deb e’lon qilish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Sammit shioridan kelib chiqib, barcha turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan va tillarimizdagi mushtarak so‘zlarni jamlaydigan “Umumturkiy so‘zlar lug‘ati”ni yaratish taklifi bildirildi.

Bundan tashqari, kosmik texnologiyalar ilk bor sammit kun tartibidan o‘rin oldi. Kosmik sanoat sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha TDTning birinchi hadli konvensiyasi imzolandi. Ushbu hujjat sun’iy yo‘ldosh aloqasi, Yerni masofadan zondlash va boshqa kosmik texnologiyalar sohasida kooperatsiyani rivojlantirish istiqbollarini ochadi.

Sammitning asosiy natijasi turkiy davlatlarning kelgusi yillardagi siyosiy, iqtisodiy, transport, harbiy-texnik va gumanitar hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi Anqara deklaratsiyasining qabul qilinishi bo‘ldi.

Shuningdek, mintaqaviy energetika yo‘laklarini rivojlantirish, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlik qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, sun’iy intellekt va intellektual mulkni himoya qilish yo‘nalishlaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Nuqtayi nazar

Hozirda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni jadal kechayotgan bir paytda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, quyida milliy ruh va huquqiy madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berishga harakat qilamiz.



KLIPLI TAFAKKUR

yoxud milliy ruhning yoshlar ta’lim va tarbiyasidagi ahamiyati xususida



Husan SAIDXO‘JAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti professori, falsafa fanlar nomzodi

Milliy ruh har bir millatning o‘zligini saqlab qolishi va kelajakka ishonch bilan qarashini ta’minlaydigan ichki qudrat manbaidir. U yoshlarda “Men jamiyatning bir qismiman, Vatanim oldida burchim bor”, degan muqaddas tuyg‘uni shakllantiradi. Milliy ruh asosida tarbiyalangan yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati, qonunga hurmat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu, o‘z navbatida, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksalishiga, jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini egallashiga xizmat qiladi.

O‘tmish mutafakkirlari “milliy ruh” atamasini aynan hozirgi zamonaviy ma’noda qo‘llamagan bo‘lsada, millatning ma’naviy quvvati, xalq ruhiyati, milliy qadriyat va ma’naviy birlik haqida muhim fikrlar bildirgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy inson va jamiyat kamoloti ma’naviy fazilatlar bilan bog‘liq ekanini ta’kidlab, jamiyatning ichki birligi va umumiy g‘oyasi uning taraqqiyotini belgilashini qayd etgan. Uning fikricha, fozil jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi ma’naviy omillar xalq ruhiyatining asosini tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniy xalqlarning urf-odati, tili va ma’naviyati ularning o‘ziga xosligini belgilashini ta’kidlaydi. U millatning ma’naviy dunyosi uning tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy millatning ma’naviy qudrati uning tili, axloqi va ma’rifati bilan belgilanishini ta’kidlagan. Hazrat asarlarida millat ruhiyati, vatanparvarlik va ma’naviy komillik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi.

Albatta, milliy ruh va huquqiy madaniyat birdaniga shakllanadigan hodisa emas. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, milliy ruh insonda ona allasi, oq sut bilan shakllanadi. Oila muhiti, milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya tizimi inson qalbida uning poydevorini qaror toptiradi. Shu ma’noda, milliy ruh insonning ichki dunyosiga chuqur singib boradigan, ongi, hissiyoti va hayotiy qarashlarida namoyon bo‘ladigan ma’naviy-ruhiy kuch sifatida talqin etiladi.

Milliy ruh yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida xalqni birlashtiruvchi, o‘zlikni anglashni shakllantiruvchi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam ma’naviy poydevor vazifasini bajaruvchi muhim ijtimoiy-ma’naviy omil sifatida namoyon bo‘ladi. U millatning tili, madaniyati, tarixiy xotirasi, urf-odatlari, an’analari va qadriyatlari majmuasida mujassam bo‘lib, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va vorisiyligini ta’minlaydi.

Prezidentimiz 2019-yil 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilarni taqdirlash marosimidagi so‘zlagan nutqida “Milliy ruh — bu yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo‘lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo‘ladi. Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O‘z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g‘amxo‘rligi va e’tiboridan oladi”, deb ta’kidladi.

Milliy ruh shaxs huquqiy madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan huquqiy ong shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, inson ongi va qalbida ma’naviy o‘zgarish yuz bermas ekan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish mushkul. Shu nuqtai nazardan, ikki omil o‘rtasidagi munosabatga ijtimoiy-falsafiy hamda huquqiy tadqiqotlarda muhim nazariy muammolardan biri sifatida qaraladi. Chunki huquqiy ong jamiyatning huquq, qonun, davlat va adolatga nisbatan munosabatini ifoda etsa, milliy ruh millatning ma’naviy-ruhiy dunyosi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, har qanday huquqiy tizim muayyan jamiyatning madaniy va milliy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Fransuz mutafakkiri Sharl Monteskye qonunlarning mazmuni xalqning tarixi, urf-odatlari, turmush tarzi va milliy xususiyatlariga mos bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, qonunlar jamiyatning “ruhi” bilan bog‘liq bo‘lib, ular xalqning yashash tarzi va ma’naviy muhitidan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Bu g‘oya milliy ruh va huquqiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslashda muhim nazariy manbadir.

Agar jamiyatda adolat, insof, bag‘rikenglik, hamjihatlik va mas’uliyat kabi milliy qadriyatlar mustahkam qaror topgan bo‘lsa, fuqarolar qonun talablarini ichki ehtiyoj sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa huquqiy madaniyat rivojlanishiga olib keladi.

Milliy ruh va huquqiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlik fuqarolarning huquqqa, ya’ni davlatga ishonchida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyatning milliy manfaatlari, qadriyatlari va ma’naviy ehtiyojlariga mos huquqiy tizim aholi tomonidan ijobiy qabul qilinadi. Aksincha, milliy muhitga begona huquqiy mexanizmlar huquqiy nigilizm, qonunlarga ishonchsizlik va ijtimoiy befarqlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu jihatdan huquqiy islohotlarni amalga oshirishda milliy xususiyatlar va jamiyatning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish muhim.

Zamonaviy globallashuv va raqamlashuv jarayonlari bu boradagi munosabatlarga yangicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar transformasiyasiga sabab bo‘lmoqda. Natijada huquqiy ongda fragmentasiya, ya’ni turli qarama-qarshi huquqiy va ma’naviy ta’sirlar kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda milliy ruh huquqiy ongni ma’naviy jihatdan muhofaza qiluvchi muhim omilga aylanadi.



Bugungi kunda, ayniqsa, yoshlar raqamli huquqiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanib ulgurdi. Natijada ularning huquqiy ongi va tafakkurida ham yangi xususiyatlar shakllanmoqda. Jumladan, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish, onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy axborotlar hamda raqamli muloqot muhiti yoshlarda huquqiy bilim va huquqiy mas’uliyatning yangi ko‘rinishlarini yuzaga chiqaryapti. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik, feyk axborotlar, shaxsiy ma’lumotlar tarqalishi kabi xavflar raqamli huquqiy madaniyatni yuksaltirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Raqamli transformasiya sharoitida yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish faqat an’anaviy huquqiy tarbiya bilan cheklanib qolmaydi. Raqamli huquqiy savodxonlik, axborot madaniyati va kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, raqamli huquqiy tafakkurga raqamli madaniyatning huquqiy komponenti sifatida ham qaraladi. Chunki raqamli madaniyat shaxsning umumiy raqamli kompetensiyalarini qamrab olsa, raqamli huquqiy tafakkur huquqiy jihatdan fikrlashini mustahkamlaydi.

Hozirgi yoshlar qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, ular an’anaviy qoidalar va me’yorlarni rad etishga moyil. Chunki ularning ongi va dunyoqarashiga zamonaviy texnologiyalar, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar jadal ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida klipli fikrlash usuli ustun bo‘lib, bu ma’lumotni chuqur o‘rganish va tahlil qilish imkonini cheklaydi. Yoshlarning faol pozitsiyasi ko‘pincha siyosiy nigilizm bilan uyg‘unlashadi. Bu esa jamiyat barqarorligini buzish va milliy qadriyatlar kamsitilishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, oila va mahalla instituti ta’sirini yanada kuchaytirish zarur. Chunki milliy ruh tushunchasini anglash dastlab oiladan boshlanadi. Bolalikdan oilada singdiriladigan odob-axloq, halollik va adolat tushunchalari keyinchalik huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Mahalla esa jamoatchilik nazoratini ta’minlash va milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga yetkazuvchi muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Bunda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi ham muhim. Uzluksiz ta’lim tizimida — maktab, akademik litsey va oliy ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni o‘qitishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, milliy-tarixiy merosimiz, buyuk allomalarimizning adolat va huquq haqidagi ilg‘or qarashlarini keng targ‘ib qilish lozim.

Milliy ruh tarbiyasi yoshlarda huquqlarini bilish bilan birga burchlarini bajarish mas’uliyatini ham kuchaytiradi. Huquqiy madaniyatli inson faqatgina o‘z manfaatlarini himoya qilmay, balki jamiyat va davlat oldidagi konstitutsiyaviy burchlarini ham vijdonan bajaradi.

Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish va milliy ruhni ularning ongiga singdirish uchun esa interaktiv muhokamalar, treninglar va amaliy keyslarni qo‘llash yaxshi samara beradi.

O‘tkazilayotgan barcha tarbiyaviy ishlar rasmiyatchilikdan xoli bo‘lib, yoshlar qalbiga yetib boradigan, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadigan ruhda tashkil etilishi lozim.

Yoshlar ko‘p vaqtini o‘tkazadigan raqamli makonlarda milliy ruhni, yuksak huquqiy madaniyatni va vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi sifatli kontentlarni ko‘paytirish bugungi kunning dolzarb talabidir.

Shulardan kelib chiqib ta’kidlash joizki, “Milliy ruh — yoshlar huquqiy madaniyatining ma’naviy poydevori” g‘oyasi nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ega. Yoshlarda milliy ruh va sog‘lom huquqiy ong uyg‘un ravishda shakllangandagina huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdek ezgu maqsadlarga erishish mumkin.

Hozirgi davrda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda asrlar davomida sayqallanib kelgan milliy tarbiya tizimi hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda mazkur qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot va umuminsoniy yutuqlar bilan ilmiy asosda uyg‘unlashtirish ham dolzarb.

Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta’lim tizimida voyaga yetmaganlarda huquqiy savodxonlikni oshirish, demokratik qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni izchil amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Kuchli ma’naviy ildiz va puxta huquqiy bilimga ega yoshlargina milliy manfaatlarimizni himoya qilib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

EL-YURT UMIDI JAMG‘ARMASI

Bobur To‘rayevning bolalik yillari onasi Mukambar Muhammedova faoliyat yuritgan tibbiyot oliygohi muhitida kechdi. U onasiga hamroh bo‘lib, OTMga tez-tez borar, oq xalatli talabalarni kuzatardi. Bu muhit unda shifokorlik kasbiga mehr va qiziqish uyg‘otib, kelajakda shu kasb egasi bo‘lish orzusining shakllanishiga zamin hozirladi.



Kamolot pillapoyasida

“YURTGA KERAKLIGIMNI ANGLADIM”

Kun kelib, orzular amalga oshdi. U tibbiyot oliygohiga o‘qishga kirdi. Talabalik yillarida jarrohlikning turli yo‘nalishlarini o‘rgandi, amaliyotlarni kuzatdi. Ilk bor yurakda o‘tkazilgan operatsiyada ishtirok etarkan, bo‘lajak shifokor nihoyat o‘z yo‘nalishini topganini angladi.

O‘sha paytlarda kardioxirurgiya bo‘limida nisbatan yengil operatsiyalar — bolalardagi ayrim tug‘ma yurak nuqsonlarini bartaraf etish amaliyoti bajarilardi. Aslida esa tug‘ma yurak nuqsonlarining turi ko‘p. Ularning har biri o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ayrim murakkab operatsiyalarni mamlakatimizda amalga oshirish imkoniyati cheklangan edi. Ayniqsa, tug‘ilishi bilanoq jarrohlik amaliyotiga ehtiyoji bo‘lgan chaqaloqlarning taqdiri Boburni qattiq o‘ylantirar, “Qachon bizda ham ana shunday murakkab operatsiyalar bajariladi? Nega bemorlarimizni davolatish uchun xorijga olib borishga majbur bo‘lishimiz kerak?” degan savollar qarshisida ojiz edi. Moliyaviy imkoniyati bor oilalar farzandini rivojlangan mamlakatlarda davolatishi mumkin, ammo tug‘ilishi bilan operatsiya qilinishi kerak bo‘lgan chaqaloqlarni chet elga olib chiqishga har doim ham ulgurib bo‘lmasdi. Axir, yo‘l, hujjatlar, aviachipta va boshqa tashkiliy masalalar vaqt talab qiladi. Bu orada bolaning sog‘lig‘i yomonlashishi mumkin.

2018-yili Bobur “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati bo‘ldi. Magistratura bosqichini Buyuk Britaniyadagi nufuzli universitetlardan birida davom ettirdi. Xorijda o‘qishning afzalliklaridan biri faqat bilim olish yoki yangi kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. U insonning dunyoqarashini ham sezilarli darajada o‘zgartiradi.

— Londonga borganimda ingliz tilini yaxshi bilaman deb o‘ylardim, — deydi Bobur. — Ammo chet tilini imtihon darajasida bilish bilan ingliz tilida so‘zlashuvchi aholi nutqini to‘liq tushunish o‘rtasida farq bor ekan. Ayniqsa, dastlabki paytlarda ma’ruzalarni tushunish, mutaxassislikka oid atamalarni anglash va mavzuga tez moslashishda qiynaldim. Yana bir xavotirim bor edi. O‘zbekistonda bakalavriatni tamomlab borganman, kursdoshlarimning ko‘pi esa Buyuk Britaniya yoki Yevropaning boshqa mamlakatlarida tahsil olgan. Shuning uchun dastlab ularning tibbiyotga oid bilimi menikidan ancha yuqori bo‘lsa kerak deb o‘yladim. Birga o‘qib, suhbatlashib O‘zbekistondagi ta’lim sifati ham, bilimim ham ularnikidan kam emasligini angladim.

Ha, ba’zan insonni cheklaydigan jihat bilimning o‘zi emas, balki o‘z imkoniyatlariga nisbatan shakllangan noto‘g‘ri tasavvur bo‘ladi. Dastlabki moslashuv davri qiyin kechgan bo‘lsa-da, Bobur keyingi bosqichlarda barcha fanni yaxshi baholar bilan o‘zlashtirdi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish, statistik tahlil qilish va dissertatsiya yozish jarayonida ko‘p narsalarni o‘rgandi.

Iqtidorli yigit xorijda zamonaviy texnologiyalar asosida kaminvaziv amaliyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazdi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, Xitoy, AQSHda stajirovkada bo‘ldi. Tibbiyotning eng ilg‘or usullarini o‘rgandi.

Bobur xorijdagi vaqtining katta qismini bolalar kardioxirurgiyasini amaliy o‘rganishga bag‘ishladi. Xususan, murakkab operatsiyalarni bajarish, chaqaloqlarni jarrohlikka tayyorlash, operatsiyadan keyingi davrni boshqarish va bemorlarni kuzatish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratdi. U tibbiyotning ilg‘or usullarini o‘rganib, yurtimizda amaliyotga tatbiq etdi. Ilgari bajarish imkoniyati bo‘lmagan ayrim murakkab operatsiyalarni yo‘lga qo‘yishga erishdi. Natijada bunday davolanishga muhtoj bolalarning xorijga borishiga zarurat kamaydi. Ular o‘z yurtida, yaqinlari bag‘rida malakali tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ilmiy ta’limning amaliy tibbiyot bilan uyg‘unlashuvi jamiyat uchun ana shunday aniq natijalar beradi.

Londonda qolib ishlash va tahsilni davom ettirish haqidagi takliflarga qaramay, Bobur uyga qaytishni afzal bildi. To‘g‘ri, xorijda yaxshi maosh olish, munosib turmush kechirish imkoniyati bor, ammo inson uchun o‘zi o‘sgan muhitda, ota-onasi, oilasi va do‘stlari bag‘rida yashashdan ortiqroq baxt bo‘lmasa kerak.

— Rivojlangan davlatlarda ko‘plab tizimlar allaqachon shakllangan va o‘z maromida ishlaydi, — deydi Bobur To‘rayev. — Siz ana shu tizimning bir qismi sifatida faoliyat yuritasiz. O‘zbekistonda esa ko‘plab sohalar, jumladan, tibbiyot ham rivojlanish va yangi tizimlarni shakllantirish bosqichida. Bunday sharoitda o‘z bilim va tajribangizni ishga solib, muayyan yo‘nalishni rivojlantirishga hissa qo‘shishingiz mumkin. Vatanimizda men kabi yoshlarga ko‘proq ehtiyoj borligini angladim. Yurtga qaytish borasidagi qarorimga eng ko‘p ta’sir qilgan omillardan biri shu bo‘ldi. Qolaversa, davlat yoshlarning xorijda ta’lim olishi uchun sarmoya kirityapti. Bu bizga bildirilgan ishonch va zimmamizdagi mas’uliyatdir. Shuning uchun olgan bilimimizni elimiz salomatligi, yurtimiz taraqqiyotiga yo‘naltirishimiz shart.

O‘zbekistonda bolalar kardioxirurgiyasini rivojlantirish, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar va chaqaloqlarda murakkab operatsiyalarni yo‘lga qo‘yish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Masalan, ilgari Ebshteyn anomaliyasi — yurakning uch tabaqali klapanida uchraydigan tug‘ma nuqson mavjud bo‘lganida jarrohlik amaliyoti bajarilmasdi. Ushbu amaliyot O‘zbekistonda ilk bor yo‘lga qo‘yilishida Boburning hissasi katta. Shu kungacha yurtimizda o‘tkazilgan ushbu turdagi 30 ga yaqin operatsiyaga u bosh-qosh bo‘ldi. Bundan tashqari, yurak bo‘lmachalaridan foydalanib, klapanni qayta tiklash usullari, Fontan va Rastelli operatsiyalarini yo‘lga qo‘yishda faollik ko‘rsatdi.

Eng muhim natija esa murakkab yurak nuqsoni bilan tug‘ilgan bolalarni yurtimizda davolash imkoniyati kengayganidir. Ilgari xorijga chiqishga majbur bo‘lgan ko‘plab bemorlar bugun O‘zbekistonning o‘zida operatsiya qilinmoqda.

Boburning mehnatlari e’tirof etilib, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, “Inson faxri” milliy mukofoti sovrindori bo‘ldi. Bu e’tiroflar qilayotgan ishlari qadrlanayotganidan dalolat beradi.

— Erishilgan natijalar bilan cheklanib qolish niyatimiz yo‘q, — deydi Bobur To‘rayev. — Hali O‘zbekistonda yo‘lga qo‘yishimiz kerak bo‘lgan jarrohlik amaliyoti turlari ko‘p. Murakkab amaliyotlarni bajarishni o‘zlashtirganimiz bilan ish bitmaydi. Operatsiyadan keyingi o‘lim holatlari va asoratlar darajasini yanada kamaytirish zarur. Bu borada rivojlangan davlatlar natijalariga yetish uchun jamoamiz bilan izlanishda davom etamiz.

Ilgari tibbiyotda, ayniqsa, jarrohlik sohasida yosh mutaxassislarga mustaqil ishlash, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun yo‘l berish oson bo‘lmagan. Ayrim hollarda yosh jarrohlar uzoq yillar faqat assistent sifatida ishlagan, ammo ularga mustaqil operatsiya bajarish imkoniyati berilmagani sir emas.

Albatta, jarrohlikda tajriba va ustoz-shogird an’anasi nihoyatda muhim. Ammo yosh mutaxassisga ishonch bildirish, uning salohiyatini to‘g‘ri baholash va mas’uliyatli vazifalarga bosqichma-bosqich jalb etish ham zarur. Aks holda, soha rivoji sekinlashadi.

— Rivojlanish har doim yangi ixtiro degani emas, — deydi Bobur To‘rayev. — Taraqqiy etgan davlatlarda samara berayotgan yondashuvlarni o‘rganib, ularni yurtimiz sharoitiga moslashtirib joriy etishning o‘zi ham katta natija berishi mumkin. Men ko‘plab xorijda ta’lim olgan yosh mutaxassislarni taniyman. Ular turli sohalarda ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Albatta, hali ham eskicha boshqaruv usullarini saqlab qolishga intilish holatlari uchraydi. Lekin avvalgi davrlarga nisbatan yoshlarga imkoniyat berilayotgani, salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratilayotgani quvonarli.

Xorijda ta’lim olish katta imkoniyat, ammo uning mohiyati faqat diplom olishda emas. Asosiy maqsad — yangi bilim va tajribani o‘zlashtirib, uni amaliyotda qo‘llash, jamiyatga naf keltirish.

— “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali ta’lim olayotgan yoshlar zimmasida ham katta mas’uliyat bor, — deydi Bobur. — Davlat bizga ishonch bildirib, bilim olishimiz uchun sharoit yaratmoqda. Biz esa ana shu ishonchni oqlab, yurtimiz rivojiga hissa qo‘shishimiz kerak. Men ham o‘z sohamda hali ko‘p ishlarni amalga oshirishni maqsad qilganman. O‘zbekistonda bolalar kardioxirurgiyasini yanada rivojlantirish, murakkab operatsiyalarni yo‘lga qo‘yish, davolash natijalarini yaxshilash va malakali mutaxassislar avlodini tayyorlash — oldimda turgan asosiy vazifalardir.

Inson hayotini asrash, yashash huquqini ta’minlashdek sharafli ishga bel bog‘lagan Bobur To‘rayev kabi yoshlar ko‘plab dardlarga malham, oilalarga butunlik berishi, bir avlodni kelajakka va millatni taraqqiyotga yetaklashi shubhasiz.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 5-noyabr, 229-son

PREZIDENT OLIMPIADASI



“O‘Z” ISHONCHIDAN BOSHLANGAN G‘ALABALAR

Mulohaza

Qadimda jang maydonlarida bir qoida bo‘lgan: bayroq hilpirab turgan ekan, qo‘shinning ruhi sinmagan. Bayroqni qo‘riqlash uchun jon tikkanlar, uni yerga tushirmaslik uchun safdoshlarini yo‘qotib bo‘lsa-da, olg‘a intilganlar haqida ko‘plab afsonalar saqlanib qolgan. Chunki bayroq oddiy mato emas. U qo‘shinning birligi, xalqning g‘ururi, g‘alabaga ishonch va ortga chekinish mumkin bo‘lmagan muqaddas burch ramzi edi. Bayroq tik turgan joyda odamlar o‘zini yolg‘iz his qilmas, atrofida birlashar, kuchi tugaganida ham undan madad olardi.



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Zamonlar o‘zgardi, jang maydonlari ham. Bugun xalqlarning kuch-qudrati ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va sportdagi yutuqlar bilan ham o‘lchanadi. Ammo bayroqning ma’nosi o‘zgargani yo‘q, aksincha, uning qadri yangi mazmun bilan boyidi. Endi u xalqaro musobaqalar shohsupasida ko‘tarilganda, minglab kilometr uzoqlikda O‘zbekiston madhiyasi yangraganda, birgina sportchining g‘alabasi butun xalqning quvonchiga aylanadi. Shu lahzalarda bayroq davlatimiz sha’ni bilan birga uning ortida turgan millionlab insonlarning orzu-umidlari, mehnati va ishonchini ham o‘zida mujassam etadi.

Yaqinda bo‘lib o‘tgan Paraosiyo o‘yinlarini ko‘pchiligimiz oynai jahon orqali kuzatib bordik. Yurtdoshlarimiz g‘alabaga erishgan lahzalarda ekran qarshisida quvondik, yutuqlarini o‘zimiznikidek qabul qildik. Ayniqsa, Xurshid Qodirovning 100 metrga yugurish bahslarida Osiyo rekordini yangilab, oltin medalni qo‘lga kiritishi ko‘pchilikning e’tiborini tortdi. Ijtimoiy tarmoqlarda uning g‘alabasiga bag‘ishlangan tabriklar, samimiy tilaklar yog‘ildi. Bir necha soniyali poyga yakunidagi bu g‘alaba tomoshabinlarga faqat quvonch ulashib qolmay, inson imkoniyatlari haqida ham o‘ylashga undadi. Axir finish chizig‘iga birinchi bo‘lib yetib kelishdan oldin qancha mashg‘ulot, qancha sabr va o‘zini yengishga to‘g‘ri kelgan lahzalar bor. Birovning “Qo‘lingdan kelmaydi”, degan gapi orzuga nuqta qo‘ymasligi kerak. Xurshidning natijasi maqsadga ishonch va izchil mehnat bilan intilish qanday samara berishini ko‘rsatdi.

Davlatimiz rahbarining II Prezident olimpiadasi ochilish marosimida yoshlarga qarata aytgan “O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l!” degan da’vatida ham shu hayotiy haqiqat mujassam. Bu uch chaqiriq inson kamolotining o‘zaro bog‘liq bosqichlarini ifodalaydi: avvalo, o‘z imkoniyatiga ishonish, keyin mehnat bilan salohiyatini rivojlantirish va nihoyat, erishgan natijasini yurt ravnaqiga xizmat qildirish. Bu so‘zlar sportchiga ham, ilm olayotgan yoshga ham, o‘z kasbini puxta egallashga intilayotgan mutaxassisga ham birdek tegishli.

O‘ziga ishonish hamma narsa oson kechadi degani emas. Aksincha, bu qiyinchilikka duch kelganda ham maqsaddan voz kechmaslik, xatolarni tan olish va yana urinib ko‘rishga kuch topishdir. Sportda buni har kuni ko‘rish mumkin: mashg‘ulotda belgilangan natijaga erisha olmagan sportchi ertasiga yana maydonga chiqadi. U mag‘lubiyatdan qochish emas, xatosidan saboq chiqarish va kechagidan yaxshiroq natija ko‘rsatish uchun harakat qiladi. Chunki chempionlik faqat shohsupada qo‘lga kiritilmaydi. U intizom, sabr va har kuni takrorlanadigan mashqlar davomida shakllanadi. Bugun oddiy ko‘ringan bir soatlik mashg‘ulot ertaga rekord natijaga yo‘l ochishi mumkin. Shuning uchun “O‘zingga ishon!” degan chaqiriq, avvalo, insonning o‘z oldiga maqsad qo‘yishi va unga erishish uchun mas’uliyatni zimmasiga olishini anglatadi. Bu intilishning natijalarini mamlakatimiz sporti misolida ham ko‘rish mumkin. So‘nggi o‘n yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 5518 ta, jumladan, 1675 ta oltin medal qo‘lga kiritdi. Bu avvalgi o‘n yillikdagi ko‘rsatkichdan uch barobar ko‘p. Raqamlar sportimizdagi o‘sishni yaqqol ko‘rsatadi. Ularning ortida faqat g‘oliblar mahorati emas, murabbiylar fidoyiligi, ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi, sportchilarning mashaqqatli tayyorgarligi va ularni yetishtirishga qaratilgan tizimli ishlar ham bor. Har bir medal ortida ko‘pchilik ko‘rmaydigan mashaqqat, yengib o‘tilgan to‘siqlar va uzoq kutilgan natijaga ishonch yotadi.

Shu bilan birga, erishilgan natijalarni yanada oshirish uchun yangi iste’dodlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga zarur sharoit yaratish muhim. Qishloqda yashaydigan, yugurishga yoki kurashga qobiliyati bor bolani tasavvur qilaylik. Uning tezligi, chaqqonligi yoki jismoniy imkoniyatlari tengdoshlaridan ajralib turishi mumkin. Ammo yaqinida sport zali bo‘lmasa, malakali murabbiy topilmasa yoki muntazam shug‘ullanish imkoni bo‘lmasa, iqtidori ochilmay qolishi ehtimoldan xoli emas. Bolaning xohishi va qobiliyati muhim, lekin ularni rivojlantirishga imkon beradigan muhit ham zarur. Demak, sportni ommalashtirishning muhim vazifasi faqat chempionlarni tayyorlashdan iborat emas. Har bir iqtidorli yoshga o‘zini sinab ko‘rish, qobiliyatini namoyon etish va yuqori natijalarga intilish imkonini berish ham shunchalik ahamiyatli.

Prezident olimpiadasi ana shu yo‘lda muhim bosqich vazifasini o‘taydi. Bu yilgi musobaqada 3,5 mingdan ziyod sportchi olimpiya va paralimpiya yo‘nalishidagi 26 sport turi bo‘yicha bellashmoqda, ularga 1,5 ming murabbiy hamrohlik qilmoqda. Bunday musobaqalar yoshlarga o‘z kuchini raqobat muhitida sinash, tajriba orttirish va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa maydoniga chiqqan har bir ishtirokchi g‘alaba uchun kurashar ekan, tayyorgarligi, irodasi va intizomini ham sinovdan o‘tkazadi. G‘oliblar munosib rag‘batlantiriladi, boshqa ishtirokchilar esa keyingi tayyorgarlik uchun zarur xulosalar chiqaradi. Eng muhimi, bu jarayon iqtidorlarni saralash, ularni muntazam kuzatib borish va yuqori darajadagi musobaqalarga tayyorlash tizimining bir qismiga aylanishi kerak.



Bu maqsadda Olimpiya shaharchasi barpo etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sport majmuasining qiymati uning qancha maydon yoki inshootdan iboratligi emas, balki ulardan qanday natija olinayotgani bilan belgilanadi. Agar bu yerda yoshlar muntazam shug‘ullansa, murabbiylar o‘z tajribasini oshirsa, sportchilar xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilsa, bu yerdan kelajakda yangi chempionlar chiqishi shubhasiz. Shu sababli Olimpiya shaharchasi faqat inshootlar majmuasi emas, balki uzoq muddatli strategik loyiha sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekistonning xalqaro musobaqalarga mezbonlik qilish imkoniyatlari kengayib borayotgani sport rivojidagi muhim yo‘nalishlardan biridir. To‘rt yil ichida mamlakatimizda jahon va Osiyo miqyosidagi 20 ga yaqin musobaqa o‘tkazildi. 2027-yil 17-sentabrdan 9-oktabrga qadar O‘zbekiston va Ozarbayjonda FIFA U-20 jahon chempionati o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Yirik musobaqalarni qabul qilish yurtimizning tashkiliy salohiyatini namoyon etish, sport infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro tajriba orttirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bunday tadbirlar mehmon sportchilar, murabbiylar va muxlislarga mamlakatimizni yaqindan tanish imkonini ham beradi. Biroq mezbonlikning eng katta samarasi musobaqa yakunlanganidan keyin bilinadi: orttirilgan tajriba mahalliy sportchilarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi lozim.



Parasportchilarimizning natijalari ham sportda imkoniyat va qo‘llab-quvvatlash qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Ular Paraosiyo o‘yinlarida 45 ta oltin, 49 ta kumush va 51 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egalladi. Bu yutuqlar sportchilarning mahorati va qat’iyati bilan birga ularni tayyorlash uchun yaratilgan sharoitlarning ahamiyatini ham namoyon etadi. Xurshid Qodirovning rekord natijasi kabi bu g‘alabalar ham inson imkoniyatlariga oldindan chegara qo‘yish mumkin emasligini eslatadi. Har bir sportchining o‘z orzusi, o‘z maqsadi va o‘z imkoniyati bor. Vazifa shu imkoniyatni to‘g‘ri baholash, uni rivojlantirish uchun sharoit yaratish va sportchining mustaqil hayotda ham o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishdan iborat.

Prezident olimpiadasi g‘olib va sovrindorlari uchun belgilangan rag‘batlar, xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etish imkoniyatlari, stipendiyalar va sport maktablarini jihozlash choralari ham uzoq muddatli natijalarga yo‘naltirilishi zarur. Bir musobaqadagi g‘alaba sportchining kelgusi muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Buning uchun muntazam tayyorgarlik, malakali murabbiylik, tiklanish va ta’lim olish uchun sharoit kerak. Sportchi bugun g‘alaba qozonib, ertaga yanada kuchli raqiblarga duch kelishi mumkin. Shu bois, uning rivojlanishiga uzluksiz e’tibor qaratish, jismoniy tayyorgarligi bilan birga bilim va hayotiy ko‘nikmalarini ham mustahkamlash muhim. Yoshlar sportda yuqori natijalarga erishish asnosida mustaqil fikrlaydigan, intizomli va mas’uliyatli inson bo‘lib shakllanishi lozim.

“O‘z yurtingga munosib bo‘l!” degan chaqiriqning mazmuni ham aynan shu yerda namoyon bo‘ladi. Yurtga munosiblik faqat xalqaro musobaqada g‘olib chiqish yoki shohsupada bayroqni ko‘tarish bilangina cheklanmaydi. U halol raqobatda, raqibga hurmatda, mag‘lubiyatdan to‘g‘ri xulosa chiqarishda va o‘z vazifasini vijdonan bajarishda ham ko‘rinadi. Sportchi uchun bu — mahorati va intizomi bilan yurt nomini munosib himoya qilish. Murabbiy uchun — shogirdlarining iqtidorini ochish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish. Jamiyat uchun esa yoshlarning qobiliyatini qadrlash, ularga ishonch bildirish va kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdir.

Davlatimiz rahbarining “O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l!” degan da’vati faqat sport maydoniga tegishli emas. U har bir insonga o‘z qobiliyatini anglash, uni mehnat bilan rivojlantirish va erishgan natijasini jamiyat manfaatiga yo‘naltirish mas’uliyatini eslatadi. Yurt salohiyati sportchilar qo‘lga kiritgan medallar, zamonaviy majmualar yoki o‘tkazilgan musobaqalar bilangina belgilanmaydi. U yoshlarga berilgan imkoniyatlar, kashf etilgan iste’dodlar va ularning orzularini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilgan sharoitlarda ham namoyon bo‘ladi. Bugun o‘z kuchiga ishongan, maqsadi sari qat’iyat bilan intilayotgan har bir yosh ertangi kunning munosib vakilidir. Ana shunday avlod kamol topar ekan, bayrog‘imiz yana ko‘p bor shohsupalarda baland ko‘tariladi, yurtimizning shuhrati yangi g‘alabalar bilan boyib boradi.

Parasportdagi yutuqlar haqida so‘z borganda, masalaning yana bir muhim jihati — inson qadri, uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun yaratilayotgan sharoitlarga e’tibor qaratish lozim. Zero, parasport insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydigan, irodasini toblaydigan, hayotga intilishini kuchaytiradigan katta imkoniyatlar maktabidir.

Parayengil atletika bo‘yicha terma jamoa bosh murabbiyi Sardor Abduxoliqov sohadagi o‘zgarishlar, sportchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar va ularning natijalarga ta’siri haqida so‘z yuritar ekan, bugungi yutuqlar zamirida Prezidentimiz e’tibori, tizimli tayyorgarlik hamda sportchilar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilgan sharoitlar turganini ta’kidladi.

Uning aytishicha, terma jamoa sportchilarining qariyb 90 foizini viloyatlardan yetishib chiqqan sportchilar tashkil etadi. Ularni yil davomida muntazam o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlariga jalb etish, tayyorgarlik jarayonini uzluksiz tashkil qilish katta imkoniyatdir. Masalan, Osiyo o‘yinlariga 20 kun qolganda 60 nafar sportchidan iborat tarkibning Yaponiyaga o‘quv-mashg‘ulot yig‘iniga yuborilishi tayyorgarlik jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Buning samarasi o‘laroq, sportchilar 145 ta medalni qo‘lga kiritdi. Murabbiyning ta’kidlashicha, yildan yilga yaratilayotgan sharoitlar yaxshilanib, natijalar ham shunga mos ravishda o‘sib bormoqda.

Murabbiy parasportchilarni saralash jarayonidagi o‘zgarishlarga to‘xtalar ekan, ilgari iqtidorli yoshlarni aniqlash uchun murabbiylarning o‘zi chekka qishloq va tumanlarga borib, xonadonma-xonadon yurganini esladi. Ayniqsa, qishning sovuq kunlarida ham izlanishlar to‘xtamasdi. Bugun esa vaziyat ancha o‘zgargan. Eng quvonarlisi, ota-onalarning o‘zi farzandini sportga olib kelmoqda. Ular bolalarining imkoniyatlariga ishonib, kelajagini sport bilan bog‘lashga intilmoqda.

Bu o‘zgarishning ijtimoiy ahamiyati juda katta. Chunki ilgari iqtidorli bolalarni izlab topish uchun murabbiylar chekka hududlarga borgan bo‘lsa, bugun ota-onalarning o‘zi farzandini sportga yetaklab kelmoqda. Demak, parasportga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarmoqda. Eng muhimi, oilalar farzandlarining jismoniy imkoniyatlarini to‘siq emas, to‘g‘ri yo‘naltirish va mehnat orqali rivojlantirish mumkin bo‘lgan salohiyat sifatida qabul qilmoqda.

Aslida, inson qadrini ulug‘lashning mohiyati ham shunda: har bir insonning qobiliyatini ko‘rish, uning orzu va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish. Imkoniyati cheklangan insonga faqat ijtimoiy yordam oluvchi shaxs sifatida qarash emas, uning iste’dodi, mehnati va mustaqil hayotga intilishini qadrlash muhim. Parasport esa ana shu qarashlarni hayotga tatbiq etishning yorqin namunasidir.

Shu ma’noda, bugun sportga jalb etilayotgan har bir yosh, murabbiylar tomonidan kashf etilayotgan har bir iste’dod, ota-onalarda shakllanayotgan ishonch sportdagi kelgusi g‘alabalarning poydevorini yaratmoqda. Bu jarayonning natijasi faqat shohsupadagi medallar bilan o‘lchanmaydi. Sport orqali o‘z kuchiga ishongan, mustaqillikka intilgan, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan insonning hayotidagi ijobiy o‘zgarish ham ulkan yutuqdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.